



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
VAZIRLIGI

Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha tarmoq uchun rahbariy ko'rsatmalar

2020



Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha tarmoq uchun rahbariy ko'rsatmalar

Minnatdorchilik

Ushbu rahbariy ko'rsatmalar Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (XTI) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida, shuningdek, bolalarni himoya qilish masalalarida faol hissa qo'shib faoliyat yurituvchi yetakchi institutlarning mualliflaridan iborat ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan. Bularga Yevropa radioeshittirishlar jamg'armasi (ERJ), Global hamkorlik tashkiloti, Bolalarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish bo'yicha global hamkorlik tashkiloti, GSM assotsiatsiyasi, Xalqaro nogironlar ittifoqi, Internet Watch Foundation (IWF), Privately SA va UNICEF kiradi. Ishchi guruhga Anjan Bose (UNICEF) raislik qildi va uning faoliyati Fanni Rotino (XTI) tomonidan muvofiqlashtirildi.

XTIning ushbu rahbariy ko'rsatmalarni mualliflarning vaqti, g'ayrati va fidoyilgisiz amalga oshirish mumkin emas edi. Shuningdek e-Worldwide Group (e-WWG), Facebook, Tencent Games, Twitter, Walt Disney Company, shuningdek, Internetni bolalar va yoshlar uchun xavfsiz va yaxshiroq joyga aylantirish bo'yicha umumiy maqsadlarga ega bo'lgan boshqa manfaatdor tomonlardan ham bebaho hissa qo'shildi. XTI quyidagi hamkorlarga qimmatli vaqtlarini ajratganliklari uchun va o'z qarashlari bilan o'rtoqlashganliklari uchun minnatdorchilik izhor etadi (tashkilotlar alifbo tartibida keltirilgan):

- Giacomo Mazzone (EBU)
- Salma Abbasi (e-WWG)
- David Miles va Caroline Hurst (Facebook)
- Amy Crocker va Serena Tommasino (Bolalarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish bo'yicha global hamkorlik tashkiloti)
- Jenny Jones (GSM assotsiatsiyasi)
- Lucy Richardson (Xalqaro nogironlar ittifoqi)
- Fanny Rotino (XTI)
- Tess Leyland (IWF)
- Deepak Tewari (Privately SA)
- Adam Liu (Tencent games)
- Katy Minshall (Twitter)
- Anjan Bose, Daniel Kardefelt Winther, Emma Day, Josianne Galea Baron, Sarah Jacobstein va Steven Edwin Vosloo (UNICEF)
- Amy E. Cunningham (The Walt Disney Company)



**Mazkur hisobotni chop qilishdan avval atrof-muhit haqida
o‘ylashingiz so‘rab qolinadi**

Ushbu hisobot [Guidelines for industry on Child Online Protection](#) hujjatining tarjima nusxasi hisoblanadi. Ushbu hujjatning asl nusxasi XTI tomonidan ingliz tilida tayyorlangan. Ushbu tarjima Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (XTI) tomonidan amalga oshirilmagan va bu tarjima XTIning rasmiy tarjima ishi deb hisoblanmasligi kerak. XTI mazkur tarjima hisoboti mazmunidagi xatoliklar uchun javobgar emas.

Soʻz boshi

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bolalar va yoshlar uchun muloqot qilish, aloqalar oʻrnatish, oʻqish, axborot almashish va undan foydalanish hamda ularning hayoti va hamjamiyatlariga tegishli boʻlgan masalalar boʻyicha oʻz qarashlari va fikrlarini bildirish uchun misli koʻrilmagan imkoniyatlarning paydo boʻlishiga olib keldi.

Ammo shu bilan birga onlayn xizmatlardan foydalanishning keng qamrovligi va osonligi onlayn muhitda hamda real hayotda bolalar xavfsizligi uchun ham jiddiy xavfni tugʻdiradi. Zamonaviy bolalar koʻplab jiddiy xavf-xatarlarga – shaxsiy hayotning daxlsizligidan tortib to tengdoshlar oʻrtasidagi zoʻravonlik, zoʻravonlik va/yoki yoshga mos kelmaydigan kontent masalalari, Internet-firibgarlik va bolalarga qarshi jinoyatlar, masalan, onlayn muhitda gruning, shahvoniy suiisteʼmolliklar va shahvoniy ekspluatatsiya kabilarga duch kelishmoqda. Tahdidlar borgan sari koʻpayib bormoqda, jinoyatchilar esa bir vaqtning oʻzida turli mamlakatlarda yashab turib bir vaqtda harakat qilmoqdalar, bu ularni kuzatishni va javobgarlikka tortishni qiyinlashtirmoqda.

Bundan tashqari, COVID-19 global pandemiyasi oʻqishlarini davom ettirish va ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish uchun internetdan birinchi marta foydalanishni boshlagan bolalar sonining koʻpayishiga olib keldi. Virus sababli qoʻyilgan cheklolar nafaqat koʻplab yosh bolalarning ota-onalari rejalashtirganidan ancha oldin onlayn muloqot qilishni boshlaganini, balki oʻz ish majburiyatlarini oʻzgartirish zarurati koʻplab ota-onalarni oʻz farzandlarini nazorat qila olmasligini va yoshlarning nomaqbul kontentga yoki bolalarga nisbatan shahvoniy suiisteʼmollik bilan bogʻliq materiallar (CSAM)ni yaratishda jinoyatchilar nishoniga aylanish xavfi ostida qoldirishganini anglatadi.

Jinoyatchilarga oʻzaro ishlashni taʼminlovchi ilovalar va oʻyinlar, fayllar bilan tez almashish, oqimli eshittirish, kriptovalyutalar, Dark Web va barqaror shifrlash dasturlari kabi texnologik taraqqiyotdan foyda oladilar. Bunda ular texnologik sektor tomonidan muammoni samarali bartaraf etish boʻyicha koʻpincha muvofiqlashtirilgan va qatʼiy boʻlmagan harakatlardan ham foyda olishadi.

Muammoni paydo boʻlayotgan texnologiyalar tufayli qisman hal qilish mumkin, masalan, sunʼiy intellekt xizmat koʻrsatadigan Interpolning bolalarga nisbatan shahvoniy suiisteʼmolliklar boʻyicha maʼlumotlar bazasidan foydalanib, bu bazada jabrlanuvchilar, zoʻravonlar va ular joylashgan joylar oʻrtasida tez aloqa oʻrnatish uchun tasvirlar va videomateriallarni taqqoslash uchun dasturiy taʼminot qoʻllaniladi. Ammo birgina texnologiyalarning oʻzi muammoni hal qila olmaydi.

Raqamli inqilob bilan bogʻliq xavf-xatarlarni kamaytirish va uning afzalliklaridan koʻproq yoshlarga foydalanish imkonini berish uchun turli manfaatdor tomonlarning birgalikdagi va muvofiqlashtirilgan harakatlari hozir har doimgidan koʻra muhimroq. Hukumatlar, fuqarolik jamiyati, mahalliy hamjamiyatlar, xalqaro tashkilotlar va tarmoqning manfaatdor tomonlari oʻz kuchlarini umumiy maqsadda birlashtirishlari kerak.

Buni inobatga olgan holda, 2018-yilda XTlga aʼzo-davlatlar Onlayn muhitda bolani himoya qilish boʻyicha rahbariy koʻrsatmalarimizni har tomonlama yangilash iltimosi bilan murojaat qildilar. Bolalarning hozirgi avlodi yashayotgan raqamli muhitdagi katta oʻzgarishlarni hisobga olgan holda XTlning ushbu yangi rahbariy koʻrsatmalari qayta koʻrib chiqildi, qayta yozildi va qayta ishlab chiqildi. Raqamli texnologiyalar va platformalardagi yangi ishlanmalarni aks ettirishdan tashqari, ushbu yangi nashrda muhim kamchilik: onlayn muhit ijtimoiy hayotda toʻlaonli ishtirok etishni taʼminlash boʻyicha ayniqsa muhim imkoniyatlarni ochib beradigan nogiron bolalarning ahvoriga eʼtibor beriladi.

Elektron texnologiyalar tarmogʻi zamonaviy bolalar va kelajak avlod uchun Internet xizmatlari va boshqa texnologiyalardan yanada xavfsiz va ishonchli foydalanish asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi va tashabbuskor oʻrin egallaydi.

Istalgan tadbirkorlik faoliyati bolalar manfaatlarini oʻz ishining markaziga qoʻyishi, yosh foydalanuvchilarning shaxsiy maʼlumotlarining maxfiyiligini himoya qilishga, ularning oʻz fikrini

ifodalash erkinligi huquqini saqlashga, CSAMning o'sib borayotgan hajmiga qarshi kurashishga va bolalar huquqlarining buzishga samarali qarshi turish va bunday buzishlarni sodir etish faktlariga javob qaytarish tizimlarini ta'minlashga faol qaratilishi kerak.

Agar mahalliy qonunchilik normalari hali xalqaro huquq talablariga javob bermasa, har bir korxonalar o'zining operatsion tizimini eng yuqori standartlar va ilg'or tajribalarga moslashtirish imkoniyati va majburiyatiga ega.

Tarmoq uchun ushbu rahbariy ko'rsatmalar tadbirkorlik siyosati va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi deb umid qilamiz. Men XTIning global konventer sifatidagi o'rnining haqiqiy ruhida ushbu rahbariy ko'rsatmalar global hamkorlikdagi say-harakatlar mahsuli ekanligidan va keng xalqaro hamjamiyatdan kelgan ekspertlar tomonidan hammualliflik qilinganidan faxrlanaman.

Shuningdek, men COPning yangi tumori xushmuomala, shijoatli va qo'rqmas xarakterga ega Sangoni tanishtirishdan mamnunman: u XTI yoshlar bilan aloqa qilish yangi xalqaro dasturining bir qismi sifatida bir guruh bolalar tomonidan yaratilgan.

Internet olamida yoshlar tobora ko'payib borayotgan ushbu davrda XTIning bolalarni himoya qilish bo'yicha rahbariy ko'rsatmalari har qachongidan ham muhimroqdir. Tarmoq, hukumat, ot-onalar va tarbiyachilar, shuningdek, bolalar o'zlarining muhim rollarini o'ynashlari kerak. Meni har doimgidek qo'llab-quvvatlaganingiz uchun minnatdorman va ushbu muhim masala bo'yicha yaqin hamkorlikni davom ettirishni intilqik bilan kutib qolaman.



Telekommunikatsiya rivojlantirish byurosi direktori
Bogdan-Martin Dorin

Minnatdorchilik	iii
Soʻz boshi	v
1 Sharh	1
2 Bolalarni onlayn muhitda himoya qilish oʻzi nima?	4
2.1 Asosiy tushunchalar	6
2.1.1 Bolalar raqamli dunyoda	7
2.1.2 Turli platformalarning bolalarning raqamli tajribasiga taʼsiri	8
2.1.3 Nogiron bolalarning alohida holati	11
2.2 Bolalarni onlayn muhitda himoya qilish uchun mavjud milliy va transmilliy modellar	12
3 Bolalar huquqlarini himoya qilish va ragʻbatlantirishning asosiy yoʻnalishlari	16
3.1 Bolalar huquqlari boʻyicha tushunchalarni barcha tegishli korporativ siyosat va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish	16
3.2 CSAM bilan ishlash uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish	17
3.3 Xavfsiz va yoshga mos keladigan onlayn muhitni yaratish	19
3.4 Bolalarni, vasiylarni va oʻqituvchilarni AKTdan xavfsiz va masʼuliyatli foydalanishga oʻqitish	21
3.5 Raqamli texnologiyani fuqarolik faolligini oshirish usuli sifatida targʻib qilish	24
4 Tarmoq uchun umumiy rahbariy koʻrsatmalar	26
5 Alohida xususiyatlar boʻyicha nazorat roʻyxatlari	35
5.1 Xususiyat A: Ulanish, maʼlumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini taqdim etish	35
5.2 Xususiyat B: Tanlangan raqamli kontentni taklif qilish	39
5.3 Xususiyat S: Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni joylashtirish va foydalanuvchilarni ulash	42
5.4 Xususiyat D: Sunʼiy intellektga asoslangan tizimlar	47
Maʼlumotlar	51
Atamalar	52

Jadvallar ro'yxati

1-jadval - Tarmoq uchun umumiy rahbariy ko'rsatmalar	26
2-jadval - A xususiyati uchun COP nazorat ro'yxati: Ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini taqdim etish	37
3-jadval: B xususiyati uchun COP nazorat ro'yxati: Tanlangan raqamli kontentni taklif qilish	39
4-jadval: S xususiyati uchun COP nazorat ro'yxati: Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni joylashtirish va foydalanuvchilarni ulash	43
5-jadval - Xususiyat D: Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar	49

1 Sharh

Ushbu hujjatning maqsadi - AKT sohasi manfaatdor tomonlarga bolalarni onlayn himoya qilish (child online protection - COP) resurslarini yaratish uchun yo'nalish berish hisoblanadi. Bolalarni onlayn himoya qilish bo'yicha tarmoq uchun rahbariy ko'rsatmalarning maqsadi korporativ qarashlar va ularning foydalanuvchilarni himoya qilish mas'uliyati uchun foydali, moslashuvchan va foydalanuvchilarga qulay asosni ta'minlashdan iboratdir. Ular, shuningdek, bugungi bolalar va kelajak avlod uchun Internetga asoslangan xizmatlar va ular bilan bog'liq texnologiyalardan xavfsiz va ishonchliroq foydalanish uchun asos yaratishga qaratilgan.

Qoidalar to'plami sifatida ushbu rahbariy ko'rsatmalar katta va kichik jarayonlar hamda manfaatdor tomonlarga bolalar va jamiyat oldidagi huquqiy va axloqiy mas'uliyatni anglash bilan birga jozibador va barqaror tadbirkorlik modelini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashga yordam berish orqali tadbirkorlik muvaffaqiyatini oshirishga qaratilgan.

Texnologiya va konvergentsiya sohasidagi sezilarli yutuqlarga javoban, XTI, UNICEF va bolalarni onlayn himoya qilish bo'yicha hamkorlar o'z mahsulotlari va xizmatlarini yetkazib berishda telekommunikatsiya yoki tegishli faoliyatni ishlab chiqadigan, ta'minlovchi yoki foydalanuvchi kompaniyalarning keng doirasi uchun rahbariy ko'rsatmalarni ishlab chiqdi va yangiladi.

Bolalarni onlayn himoya qilish bo'yicha tarmoq uchun yangi rahbariy ko'rsatmalar COP tashabbusi a'zolari bilan muhokamalar, shuningdek, fuqarolik jamiyati a'zolari, tadbirkorlik, ilmiy doiralar, hukumat, ommaviy axborot vositalari, xalqaro tashkilotlar va yoshlar bilan kengroq munozaralar natijasidir.

Ushbu hujjatning maqsadi:

- AKT va Internet hamda tegishli manfaatdor tomonlar uchun umumiy etalon va rahbariy ko'rsatmani yaratish;
- kompaniyalarga o'z mahsulotlari va xizmatlarining bolalar huquqlariga salbiy ta'sirini aniqlash, oldini olish va yengillatish bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar berish;
- kompaniyalarga bolalar huquqlarini va ular o'rtasida mas'uliyatli raqamli fuqarolikni targ'ib qilish yo'llarini aniqlash bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar berish;
- tadbirkorlikning turli ko'rinishlarini amalga oshirishning har xil modellaridan foydalanishini tan olgan holda, barcha tegishli tarmoqlar bo'yicha milliy yoki mintaqaviy majburiyatlarning asosini shakllantirish uchun umumiy rahbariy ko'rsatmalarni taklif qilish.

Qo'llash doirasi

Bolalarni onlayn muhitida himoya qilish – bu ko'plab turli xil boshqaruv, siyosiy, tezkor, texnik va huquqiy jihatlarni qamrab oluvchi kompleks vazifadir. Ushbu rahbariy ko'rsatmalar mavjud va ma'lum modellar, sxemalar va boshqa materiallar asosida ushbu jihatlar ko'pchiligining ustuvor vazifalarini tahlil qilish, tashkil qilish va belgilashga harakat hisoblanadi.

Rahbariy ko'rsatmalar bolalarni barcha sohalarda va raqamli dunyoning barcha xavf-xatarlaridan himoya qilishga qaratilgan, shuning uchun kompaniyalar darajasida COP siyosatini loyihalash, ishlab chiqish va boshqarish jarayonida hisobga olinishi mumkin bo'lgan tarmoq manfaatdor tomonlarining ilg'or tajribalarini ajratadi. Ular tarmoq subyektlariga nafaqat o'z xizmatlari orqali harakat qilishlari shart bo'lgan noqonuniy onlayn faoliyatni (masalan, internetdagi CSAM) qanday boshqarish va tartibga solish bo'yicha ko'rsatmalar beradi, balki ba'zi yurisdiksiyalarida jinoyat deb hisoblanmaydigan boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishga ham e'tibor qaratadi. Bularga tengdoshlar o'rtasidagi zo'ravonlik, kiberta'qib va internetdagi shilqimliklar, shuningdek, ma'lum kontekstda bolalarga ziyon keltirishi mumkin

bo'lgan konfidensiallik yoki umumiy farovonlik, firibgarlik yoki boshqa tahdidlar bilan bog'liq masalalar bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilarga bog'liq holda Rahbariy ko'rsatmalarga raqamli dunyoda bolalar duch keladigan xavf-xatarlarni bartaraf etish va bolalar uchun internetda xavfsiz muhitni shakllantirish maqsadida qanday harakat qilish yuzasidan ilg'or amaliy yondashuvlarga nisbatan tavsiyalar kiritilgan. Ularda AKT, Internet yoki unga ulanishi mumkin bo'lgan har qanday texnologiya yoki qurilmalar, jumladan, mobil telefonlar, o'yin pristavkalari, Internetga ulangan o'yinchoqlar, soatlar, buyumlar internetidan va sun'iy intellekt tomonidan boshqariladigan tizimlardan foydalanishda bolalar xavfsizligini ta'minlashga yordam berish uchun tarmoq qanday ishlashi mumkinligi to'g'risida tavsiyalar beradi. Shuning uchun ular bolalarni onlayn himoya qilish bilan bog'liq asosiy masalalar va muammolar haqida umumiy ma'lumot beradi. Tadbirkorlik va manfaatdor tomonlar uchun mahalliy va ichki COP siyosatlarini ishlab chiqish bo'yicha harakatlarni taklif qiladi. Ushbu rahbariy ko'rsatmalar tarmoqlar uchun COP siyosatini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan haqiqiy rivojlanish jarayoni yoki matn kabi jihatlarni qamrab olmaydi.

Tuzilishi

1-bo'lim – Sharh. Bu bo'limda ushbu Rahbariy ko'rsatmalarning maqsadi, qo'llash sohasi va maqsadli auditoriyasi belgilangan.

2-bo'lim – Bolalarni onlayn muhitda himoya qilish mavzusiga kirish. Ushbu bo'limda bolalarni onlayn muhitda himoya qilish mavzusining sharhi va asosiy tushunchalar berilgan, jumladan, nogiron bolalarning alohida holati ko'rsatilgan. Bundan tashqari, unda tarmoqdagi manfaatdor tomonlar uchun aralashuvning mumkin bo'lgan sohasi sifatida onlayn muhitda bolalarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mavjud xalqaro va milliy modellarga misollar keltirilgan.

3-bo'lim– Bolalar huquqlarini himoya qilish va ta'minlash sohasidagi asosiy yo'nalishlar: Ushbu bo'lim bolalar himoyasini va AKTni ijobiy qo'llaninishini ta'minlash uchun kompaniyalar harakatlarining beshta asosiy yo'nalishlarini tavsiflashga bag'ishlanadi.

4-bo'lim– Umumiy rahbariy ko'rsatmalar: Ushbu bo'limda AKTdan foydalanishda bolalar xavfsizligini ta'minlash va AKTni ijobiy qo'llash sohasidagi barcha manfaatdor tomonlar uchun, shu jumladan bolalar o'rtasida mas'uliyatli raqamli fuqarolikni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

5-bo'lim– Alohida xususiyatlar bo'yicha nazorat ro'yxati: Ushbu bo'limda manfaatdor tomonlar uchun quyidagi xususiyatlar bilan bolalar huquqlarini himoya qilish maqsadidagi harakatlar bo'yicha aniq tavsiyalar yoritilgan:

- A xususiyati: Ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini taqdim etish
- B xususiyati: Tanlangan raqamli kontentni taklif qilish
- S xususiyati Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni joylashtirish va foydalanuvchilarni ulash
- D xususiyati: Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar

Maqsadli auditoriya

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan inson huquqlari jihatidagi Tadbirkorlik faoliyatining rahbariy prinsiplari kontekstida,¹ "Tadbirkorlik prinsiplari va bolalar huquqlari" hujjati kompaniyalarni o'z faoliyati, mahsulotlari yoki xizmatlari bilan bog'liq har qanday salbiy ta'sirlardan qochib, bolalar huquqlarini hurmat qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga chaqiradi. Ushbu tamoyillar, shuningdek, "hurmat" (kompaniyalarga bolalarga zarar yetkazmaslik bo'yicha minimal talab bilan) va "qo'llab-quvvatlash" (masalan, bolalar

¹ United Nations Guiding Principles on Business and Human Rights.

huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan ixtiyoriy aksiyalarni o'tkazishda ifodalanadigan) o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi. Kompaniyalar bolalarning AKT ijobiy qo'llanishini rag'batlantirish bilan birga, bolalarning onlayn muhitda himoyalash hamda axborotdan foydalanish va so'z erkinligi huquqlarini ta'minlashi kerak.

Telekommunikatsiya va mobil telefon tarmog'ining turli sohalari, shuningdek internet-kompaniyalar va radioeshittirish tashkilotlari o'rtasidagi an'anaviy farqlar jadal buzilmoqda yoki ahamiyatini yo'qotmoqda. Konvergensiya bu ilgari bir-biridan aniq ajratilgan raqamli oqimlarni dunyoning barcha qismlaridagi milliardlab odamlarni qamrab oluvchi yagona oqimga birlashtirishga olib kelmoqda. Hamkorlik va sheriklik Internet va unga aloqador texnologiyalardan yanada xavfsiz va ishonchli foydalanish asoslarini yaratishning kalitidir. Davlat organlari, xususiy sektor, ko'rsatma beruvchi organlar, ta'lim sohasi, fuqarolik jamiyati, ota-onalar va vasiylar – qo'yilgan maqsadga erishishda ularning o'rni muhimdir. Tarmoq 3-bo'limda tavsiflanganidek, beshta asosiy yo'nalishda harakat qilishi mumkin.

2 Bolalarni onlayn muhitda himoya qilish o'zi nima?

So'nggi 10 yil ichida Internetdan foydalanish va uning odamlar hayotidagi o'rni sezilarli darajada o'zgardi. Smartfonlar va planshetlarning keng tarqalishini, Wi-Fi va 4G texnologiyalaridan foydalanish qulayligi, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar platformalari va ilovalarning rivojlanishi miqdori ortib borayotgan turli sabablar hisobiga ko'proq odamlar Internetdan foydalanishmoqda.

2019-yilda dunyo aholisining yarmidan ko'pi internetdan foydalangan. Internetdan foydalanuvchilarning eng katta qismini 44 yoshgacha bo'lgan odamlar tashkil etadi, 16-24 yoshli va 35-44 yoshlilar orasida Internetdan foydalanish hajmlari bir xil. Global miqyosda har uchinchi internet foydalanuvchisi bola (0-18 yosh) hisoblanadi va UNICEF hisob-kitoblariga ko'ra, yoshlarning 71 foizi allaqachon internet olamida.² Internetga kirish nuqtalarining har tomonlama ko'payishi, mobil texnologiyalar va Internet-texnologiyalar bazasidagi qurilmalar xilining ko'payishi (kibermakonning ulkan resurslar bilan birgalikda) o'rganish, axborot almashish va muloqot qilish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi.

AKTdan foydalanishning afzalliklariga ijtimoiy xizmatlar, ta'lim resurslari va sog'liq to'g'risidagi axborotdan yanada keng foydalanish imkoniyati kiradi. Bolalar, yoshlar va oilalar axborotni qidirish va yordam so'rash hamda suiiste'mollik holatlari haqida xabar berish uchun Internet va mobil telefonlardan foydalanar ekan, bu texnologiyalar bolalar va yoshlarni zo'ravonlik hamda ekspluatatsiyadan himoya qilishga yordam bera oladi. Bolalarni himoya qilish bo'yicha xizmatlarni yetkazib beruvchilar ham ma'lumotlarni to'plash va uzatish uchun AKTdan foydalanadi, shu orqali tug'ilishni ro'yxatga olish, ishlarni boshqarish, oilani kuzatish, ma'lumotlar to'plash va zo'ravonlik xaritasini yaratish osonlashadi.

Bundan tashqari, Internet dunyoning barcha burchaklarida axborot olish imkoniyatini kengaytirdi, bu bolalar va yoshlarga ularni qiziqtirgan deyarli har qanday mavzuni o'rganish, butun dunyo ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, taklif qilinayotgan vakansiyalarni kuzatish va kelajak g'oyalarini o'zlashtirish imkonini berdi. AKTni qo'llash bolalar va yoshlarga o'z huquqlarini himoya qilish va o'z fikrini bildirish imkoniyatini beradi, shuningdek, ularga oilalari va do'stlari bilan aloqada bo'lish va muloqot qilish ko'plab usullarini taklif qiladi. Shu bilan bir qatorda, AKT madaniy almashinuvning birinchi darajali vositasi va ermak manbai bo'lib xizmat qiladi.

Internetning muhim afzalliklariga qaramay, bolalar va yoshlar AKTdan foydalanganda ko'plab xavf-xatarlarga ham duch kelishlari mumkin. Ular yoshiga mos kelmaydigan kontentga yoki nomaqbul aloqalarga, shu jumladan, shahvoniy suiistemolliklarga ehtimoliy aybdorlarning ta'siriga uchrashi mumkin. Ular o'zlarining shaxsiy intim xarakterdagi ma'lumotlarini internetda e'lon qilish yoki "seksting" natijasida obro'siga putur yetkazishi mumkinligini, ko'pincha shunga o'xshash aloqalarining o'zlariga va boshqa shaxslar uchun ularning uzoq muddatli "raqamli geografiyadagi" oqibatlarini to'liq darajada anglab yetmaydilar. Shuningdek, ular ma'lumotlarni yig'ish va foydalanish, shuningdek joylashgan joyi to'g'risidagi axborotni yig'ish bilan bog'liq konfidensiallikni buzish xavfiga duch keladilar.

Inson huquqlari bo'yicha eng keng tasdiqlangan xalqaro hujjat bo'lgan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya,³ bolalarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini belgilaydi. Unda barcha bolalar bilim olish; dam olish, o'yin va madaniyat; tegishli ma'lumotlarni olish; fikrlash va ifodalash erkinligi; shaxsiy daxlsizlik va o'z imkoniyatlariga mos ravishda ularga ta'sir qiladigan masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirish huquqiga ega ekanliklari aks ettirilgan. Konvensiya, shuningdek, bolalar va yoshlarni har qanday zo'ravonlik, ekspluatatsiya, ularni suiiste'mol qilish va kamsitishning har qanday shakllaridan

² OECD, "New Technologies and 21st Century Children: Recent Trends and Outcomes", Education Working Paper No. 179.

³ United Nations Convention on the Rights of the Child. All but three countries (Somalia, South Sudan and the United States) have ratified the Convention on the Rights of the Child.

himoya qiladi va ularga taalluqli har qanday masalalarda bolaning eng yuqori manfaatlarini hisobga olish birinchi o'rinda turishi kerakligini belgilaydi. Ota-onalar, vasiylar, o'qituvchilar va jamoat a'zolari, jumladan, mahalla yetakchilari va fuqarolik jamiyati vakillari bolalar va yoshlarni voyaga yetkazishda tarbiyalash va qo'llab-quvvatlashga mas'uldirlar. Davlat organlari barcha manfaatdor tomonlarning o'z vazifalarini bajarishlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bolalarning onlayn muhitidagi huquqlarini himoya qilishda, biznes bolalarning himoyalaniish huquqi, ularning axborotdan foydalanish huquqi va o'z fikrini erkin ifodalashi o'rtasida aniq muvozanatni saqlash uchun birgalikda ishlashi kerak. Shu sababli, kompaniyalar bolalar va yoshlarni onlayn himoya qilish choralariga ustuvor ahamiyat berishlari kerak, bu choralar maqsadli, bolalar uchun ham, boshqa foydalanuvchilar uchun ham ortiqcha cheklovlarsiz amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, bolalar va yoshlar o'rtasida raqamli fuqarolikni targ'ib qilish, bolalarning AKTni ijobiy qo'llashga yordam beruvchi mahsulotlar va platformalarni ishlab chiqish xususiy sektor uchun ustuvor yo'nalish bo'lishi kerakligi to'g'risidagi umumiy qarashlar ortib bormoqda.

Internet-texnologiyalar bolalar va yoshlar uchun muloqot qilish, yangi ko'nikmalarni o'rganish, ijod qilish va barcha uchun jamiyatni yaxshilashga hissa qo'shish maqsadida ko'plab imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ular bolalar va yoshlar xavfsizligi uchun yangi xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ular bolalar va yoshlarni quyidagi sohalar bo'yicha shaxsiy daxlsizlik, noqonuniy kontent, ta'qiblar, kiberbuling, shaxsiy ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish yoki jinsiy maqsadlarda gruming qilish va hatto bolalarning jinsiy zo'ravonligi va ekspluatatsiyasi bilan bog'liq potentsial xavf-xatarlarga duchor qilishi mumkin. Shuningdek, shaxsiy intim ma'lumotlarni onlayn yoki "seksting" orqali nashr qilish bilan bog'liq "pornoqasos" bo'lib, bu foydalanuvchilar uchun mobil telefonlar orqali shahvoniy xabarlar, fotosuratlar yoki tasvirlarni yuborish usullari bilan bolalar va yoshlarning obro'siga putur yetkazishi mumkin. Shuningdek, Internetdan foydalanishda konfidensiallik bilan bog'liq xavflar mavjud. Bolalar yoshlariga xos tajribasizligi sababli, ko'pincha onlayn dunyo bilan bog'liq xavflarni va o'zlarining nomaqbul xatti-harakatlarining boshqalarga va o'zlariga olib kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini to'liq anglay olmaydilar.

Afzalliklarga qaramay, rivojlanayotgan va nisbatan ilg'or texnologiyalardan foydalanishning salbiy tomonlari ham mavjud. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish, virtual va kengaytirilgan reallik, katta hajmli ma'lumotlar, robototexnika va buyumlar interneti sohasidagi ishlanmalar bolalar va yoshlarning uzatish vositalari bilan o'zaro ta'sirini yanada o'zgartiradi. Ushbu texnologiyalar asosan xizmatlar ko'lamini kengaytirish va qulaylikni oshirish (masalan, ovozli yordamchi, foydalanish imkoniyatlari va raqamli sho'ng'ishning yangi shakllari orqali) uchun ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, bunday texnologiyalarning ba'zilari beixtiyor bolalarga qarshi jinsiy jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirishlarida qo'l kelishi mumkin. Bolalar va yoshlar uchun xavfsiz va ishonchli onlayn muhitni yaratish davlat organlari, xususiy sektor va barcha manfaatdor tomonlarning samarali ishtirokini talab qiladi. Bundan tashqari, ota-onalar va o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalari va savodxonligini rivojlantirish ham asosiy maqsadlardan biri bo'lishi kerak, bu vazifani bajarishda tarmoq hayotiy muhim va barqaror o'rin tutishi mumkin.

Ba'zi bolalar onlayn xavflarni va ularga qanday javob berishni yaxshi bilishlari mumkin. Biroq bu tushunchani barcha bolalar uchun, ayniqsa zaif guruhlar orasida aytish mumkin emas. ko'ra, Bolalarga nisbatan zo'ravonlik, ekspluatatsiya, odam savdosi, zo'ravonlik va bolalarga nisbatan qiynoqlarning barcha shakllariga barham berishga qaratilgan BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 16.2-bandiga ko'ra, bolalarni onlayn himoya qilish ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

2009-yildan boshlab XTI tomonidan tashkil etilgan ko'plab xalqaro darajadagi manfaatdor tomonlar uchun COP Tashabbusi bolalarning onlayn muhitdagi xavflar va ushbu xavflarga javob choralari haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan. Tashabbus dunyoning istalgan nuqtasida bolalar uchun xavfsiz va ishonchli onlayn tajribani ta'minlash uchun jahon

hamjamiyatining barcha sektorlaridan hamkorlarni birlashtirishga qaratilgan. Ushbu Tashabbus qismida 2009-yilda XTI to'rtta guruh: bolalar; ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilar; tarmoq; ko'rsatma beruvchi organlar uchun COP Rahbariy ko'rsatmalar to'plamini nashr etdi. Ushbu Rahbariy ko'rsatmalarda onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bolalar va yoshlar onlayn muhitda yoki onlayn texnologiyalar sababli duch kelishi mumkin bo'lgan barcha tahdid va zararlarga javob qaytarish uchun har tomonlama yondashuv sifatida tushuniladi. Ushbu hujjatda, onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bolalarga real hayotda yetkaziladigan, lekin onlayn zo'ravonlik va suiiste'molliklar bilan bog'liq bo'lgan zararni ham o'z ichiga oladi. Bolalarning internetdagi xulq-atvori va harakatlarini ko'rib chiqishdan tashqari, onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bolalarni ekspluatatsiya qilish maqsadida bolalarning o'zidan tashqari boshqa shaxslar tomonidan texnologiyalardan noto'g'ri foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

Barcha tegishli manfaatdor tomonlar bolalar va yoshlarga Internet taklif qiladigan imkoniyatlardan foydalanishga yordam berish uchun ma'lum o'rin tutadi, bunda onlayn farovonlik va himoya bo'yicha raqamli savodxonlik va barqarorlikka erishadilar.

Bolalar va yoshlarni himoya qilish barcha manfaatdor tomonlarning umumiy javobgarligi hisoblanadi. Bu vazifani amaliy hal qilish uchun ko'rsatma beruvchi organlar, tarmoq vakillari, ota-onalar, vasiylar, o'qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bolalar va yoshlarga o'z salohiyatlarini onlayn va real hayotda amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Umumiy qabul qilingan ta'rifi yo'q bo'lsa-da, onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bolalar va yoshlar uchun xavfsiz, yoshga mos, keng qamrovli va raqamli makon ishtirokini ko'zda tutadigan yaxlit yondashuv shakliga ega bo'ladi, bu yondashuv quyidagi xarakteristikalariga ega:

- tahdidlarga javob qaytarish, qo'llab-quvvatlash va o'ziga-o'zi yordam berish;
- zararining oldini olish;
- himoyani ta'minlash va bolalarga raqamli fuqaroga aylanish imkoniyatini taqdim etish o'rtasidagi dinamik muvozanat;
- bolalar tomonidan hamda jamiyat tomonidan huquq va majburiyatlarga rioya qilish.

Bundan tashqari, texnologiyalar va jamiyatning jadal rivojlanishi hamda Internet chegaralarining yo'qligi sababli onlayn muhitda bolalarni himoya qilish samarali bo'lishi uchun tez va moslashuvchan bo'lishi kerak. Texnologik innovatsiyalarning rivojlanishi bilan yangi muammolar paydo bo'ladi va mintaqadan mintaqaga muammolar farqlanib boradi. Ularni global hamjamiyat doirasida kuchlarni birlashtirish yangi yondashuvlarni qidirish zarurligini hisobga olgan holda, ularni muvaffaqiyatli hal qilishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

2.1 Asosiy tushunchalar

Internet bolalar va yoshlar hayotiga to'liq integratsiyalashganini hisobga oladigan bo'lsak, raqamli va haqiqiy dunyoni alohida ko'rib chiqib bo'lmaydi.

Ulanishlarni o'rnatishning bunday imkoniyati juda katta imkoniyatlarni ochib beradi. Internet dunyosi bolalar va yoshlarga nomaqbul holatlarni va imkoniyatlar cheklanganligini yengib o'tish imkonini beradi hamda ko'ngil ochish, ta'lim olish va o'zaro munosabatlarni shakllantirish uchun yangi maydon bo'lib xizmat qiladi. Mavjud raqamli platformalardan faoliyatning har xil turlari uchun foydalaniladi, olinadigan tajriba ko'pincha multimediali tajriba hisoblanadi .

Ushbu texnologiyadan foydalanish va undan foydalanishni o'rganishga yoshlar rivojlanishi uchun juda muhim ko'nikmalar sifatida qaraladi, shuning uchun AKT dan ilk bor foydalanish ilk yoshda yuz beradi. Shu tariqa, barcha ishtirokchilar bolalar va yoshlar ko'pincha texnologik tarmoq mos kelishi kerak bo'lgan belgilangan minimal yoshga etmasdan oldin platformalar va xizmatlardan foydalanishni boshlashlarini anglashlari juda muhim va shuning uchun himoyalash choralari bilan bir qatorda o'qitish bolalar tomonidan foydalaniladigan barcha onlayn xizmatlarga integratsiya qilinishi kerak.

2.1.1 Bolalar raqamli dunyoda

Internetdan foydalana olish

Ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda dunyo aholisining yarmidan ko'pi (53,6 foiz) internetdan foydalangan bo'lib, hisob-kitoblarga ko'ra foydalanuvchilar soni 4,1 milliardga yetgan. Global miqyosda har uchinchi internet foydalanuvchisi 18 yoshgacha bo'lgan bolalardir⁴. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab yoshlarning 71 foizi allaqachon Internetga ulangan⁵. Minimal yosh talablariga qaramay, Ofcom (Birlashgan Qirollikdagi aloqa sohasini tartibga soluvchi organi) hisob-kitoblariga ko'ra, 10 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarning deyarli 50 foizi allaqachon ijtimoiy tarmoqda o'z akkauntiga ega.⁶ Bolalar va yoshlar hozirda Internetda ancha, doimiy va barqaror ravishda ishtirok etib bormoqdalar. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy maqsadlardan boshqa maqsadlarga qaratilgan Internet-xizmatlar hozirda oilalar, bolalar va yoshlar hayot tarzining ajralmas qismi bo'lgan oilaviy yoki iste'mol mahsuloti yoki xizmatiga aylandi.

2017-yilda hududiy miqyosda bolalar va yoshlarning internetdan foydalana olishi milliy daromad darajasi bilan mustahkam bog'langan edi. Daromad past bo'lgan mamlakatlarda internetdan foydalanuvchi bolalar soni daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlarga qaraganda pastroqligi kuzatilgan. Aksariyat mamlakatlardagi bolalar va yoshlar dam olish kunlarida ish kunlariga qaraganda internetda ko'proq vaqt o'tkazishadi, Internetda eng uzoq vaqtni 15-17 yoshli o'smirlar mamlakatlaridan kelib chiqqan holda, 2,5 dan 5,3 soatgacha o'tkazadilar.

Internetdan foydalanish

Bolalar va yoshlar orasida internetga kirish uchun eng ommabop qurilma mobil telefon hisoblanadi. Ikkinchi o'rinda kompyuterlar va noutbuklar turadi. Bolalar va yoshlar hafta davomida kuniga o'rtacha ikki soat, dam olish kunlari esa to'rt soatni tarmoqda o'tkazadilar. Bunda ularning bir qismi o'zini doimiy ulangan deb hisoblaydi, boshqalari hali ham uyda Internetga kirish imkoniga ega emaslar. Amalda Internetdan foydalanadigan bolalar va yoshlarning ko'pchiligi bir nechta qurilmalar orqali, ba'zan esa kamida haftada bir marta ulanadiganlar uch xil qurilmadan foydalanishadi. Kattaroq yoshdagi bolalar va boyroq mamlakatlarda yashaydiganlar odatda ko'proq qurilmalardan foydalanadilar, shuningdek kuzatuv o'tkazilgan barcha mamlakatlarda o'g'il bolalar qizlarga nisbatan ko'proq qurilmalardan foydalanadilar.

Qizlar va o'g'il bolalar orasida eng mashhur mashg'ulot videoroliklarni tomosha qilishdir. Internetdan foydalanadigan bolalar va yoshlarning to'rtidan uch qismidan ko'prog'i yolg'iz yoki boshqa oila a'zolari bilan kamida haftada bir marta onlayn video tomosha qilishlarini aytishadi. Ko'pgina bolalar va yoshlarni "faol fuqarolar" deb hisoblash mumkin, chunki ular Facebook, Twitter, Tiktok yoki Instagram kabi bir nechta ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar. Bolalar va yoshlar ham onlayn siyosat bilan shug'ullanadilar va bloglar orqali o'z fikrlarini ifoda etadilar.

Onlayn o'yinlarda ishtirok etishning umumiy darajasi bolalar va yoshlar uchun Internetga kirish qulayligiga qarab turli mamlakatlarda farqlanadi. Biroq, onlayn o'yinlarning mavjudligi va arzonligi tez o'zgarib bormoqda, bu esa o'z navbatida, bolalar va yoshlarning birinchi marta onlayn o'yinlarga kirish yoshi pasayishiga olib kelmoqda.

⁴ Livingstone, S., Carr, J., and Byrne, J. (2015) One in three: The task for global internet governance in addressing children's rights. Global Commission on Internet Governance: Paper Series. London: CIGI and Chatham House, <https://www.cigionline.org/publications/one-three-internet-governance-and-childrens-rights>.

⁵ Broadband Commission, "Child Online Safety: Minimizing the Risk of Violence, Abuse and Exploitation Online (2019)," *Broadband Commission for Sustainable Development*, October 2019, 84, https://broadbandcommission.org/Documents/working-groups/ChildOnlineSafety_Report.pdf.

⁶ BBC, "Under-age social media use 'on the rise', says Ofcom".

Har hafta Internetdan foydalanuvchi bolalar va yoshlarning 10-30 foizi (tanlangan mamlakatlar misolida) onlayn ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadi.⁷ Ma'rifiy maqsadlarda ko'plab bolalar va yoshlar har hafta uy vazifasini bajarish, qoldirilgan darslar to'g'risida yoki sog'lig'i haqida ma'lumot olish uchun Internetdan foydalanishadi. Katta yoshdagi bolalar yosh bolalarga qaraganda ma'lumotga ko'proq chanqoqdirlar.

Onlayn muhitida bolalar jinsiy ekspluatatsiyasi va jinsiy suiiste'molliigi

Bolalarning onlayn jinsiy ekspluatatsiyasi va zo'rvonligi (CSEA) hayratlanarli darajada o'sib bormoqda. O'n yil oldin bolalarga nisbatan zo'rvonlik bilan bog'liq materiallar bir milliondan kam ekanligi xabar berilgan edi. 2019-yilda bu raqam 70 millionga ko'tarilib, 2018-yilga nisbatan qariyb 50 foizga ko'paygan. Bundan tashqari, rasmiylarga taqdim etilgan hisobotlarda birinchi marta bolalarni suiiste'mol qilinishi haqidagi videolar tasvirlar sonidan ko'p bo'lib, bu trendni bartaraf etish uchun yangi vositalarga ehtiyoj borligini ko'rsatdi. Onlayn CSEA qurbonlari barcha yosh guruhlari bo'yicha mavjud, ammo ularning yoshi brogan sari yosharmoqda. 2018-yilda esa INHOPE Ishonch telefonlari tarmog'i jabrlanuvchilar profilining balog'atga yetgandan balog'atga yetmaganga siljishini qayd etdi. Bundan tashqari, 2018-yilda ECPAT International va INTERPOL tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kichik yoshdagi bolalar og'ir zo'rvonlik, jumladan qiynoqlar, zo'rvonlik bilan zo'rlash yoki sadizmga duchor bo'lish ehtimoli ko'proq hisoblanadi. Bunga, hattoki, kunlik, bir necha haftalik yoki oylik bo'lgan chaqaloqlar ham kiradi. Qizlar ko'proq zo'rvonlikka uchragan bo'lsa-da, o'g'il bolalar yanada shafqatsiz zo'rvonlikka uchrashlari mumkin. Xuddi shu hisobotda qayd etilishicha, hisobotlarda tilga olingan qurbonlarning 80 foizi qizlar va 17 foizi o'g'il bolalardir. Xabarlarining 3 foizida ikkala jinsdagi bolalar qayd etilgan.⁸

Qisqa ma'lumotlar⁹

- Butun dunyo bo'ylab har uchinchi internet foydalanuvchisi bola hisoblanadi.
- Har yarim soniyada bitta bola birinchi marta internetga ulanadi.
- 800 million bola ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi.
- Mavjud ma'lumotlarga ko'ra istalgan vaqtda tarmoqda bo'lgan 750 000 odamlar shahvoniy maqsadlarda bolalar bilan bog'lanish imkonini qidiradilar.
- EUROPOL omborida CSAM bo'lgan 46 milliondan ortiq tasvirlar yoki videoroliklar mavjud.
- Jabrlanganlarning 89 foizdan ortig'i 3 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalardir.

Internetda CSEA ko'lamlari va javob qaytarish usullari to'g'risidagi yanada batafsil axborot WePROTECT Global alyans saytida keltiriladi.

2.1.2 Turli platformalarning bolalarning raqamli tajribasiga ta'siri

Internet va raqamli texnologiyalar bolalar va yoshlar uchun imkoniyatlar hamda xavflar tug'diradi. Ulardan ba'zilari quyida keltirilgan.

Bolalar **ijtimoiy tarmoqlardan** foydalanganda ular tadqiqotlar o'tkazish, o'rganish, muloqot qilish va asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlardan foydalanadilar. Ijtimoiy tarmoqlar bolalar uchun xavfsiz muhitda o'z shaxsiyatini o'rganish imkonini beruvchi platforma bo'lib xizmat qiladi. Yoshlar uchun tegishli ko'nikmalarga ega bo'lish va konfidensiallik hamda obro' bilan bog'liq masalalarni hal qilishni bilish juda muhimdir.

⁷ Livingstone, S., Kardefelt Winther, D., and Hussein, M. (2019). *Global Kids Online Comparative Report, Innocenti Research Report*. UNICEF Office of Research - Innocenti, Florence, <https://www.unicef-irc.org/publications/1059-global-kids-online-comparative-report.html>.

⁸ ECPAT and Interpol, "Towards a Global Indicator on Unidentified Victims in Child Sexual Exploitation Material: summary report", 2018.

⁹ End Violence Against Children, "Safe Online".

"Internetga joylashtirgan hamma narsangiz u yerda abadiy qolishi va kelajakda hayotingizga ta'sir qilishi mumkinligini bilaman", - 14 yoshli bola, Chili.

Shunga qaramasdan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik bolalar 13 yoshga to'lmasdan oldin ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda va yoshni tekshirish xizmatlari umuman zaif yoki yo'q bo'lsa, bolalar juda jiddiy xavflarga duch kelishlari mumkin. Bundan tashqari, bolalar raqamli ko'nikmalarni o'rganishni, raqamli fuqaro bo'lishni va konfidensiallik sozlamalarini nazorat qilishni xohlashsa-da, ular konfidensiallikni faqat do'stlari va tanishlariga nisbatan ko'rib chiqishga tayyordirlar –“Mening do'stlarim nimani ko'rishlari mumkin?”- ammo notanish odamlar va uchinchi shaxslarni hisobga olmasdan. Bu bolalarning tabiiy qiziquvchanligi va xavfni his qilish qobiliyatining pastligi bilan qo'shganda ularni gruming, ekspluatatsiya qilish, ta'qib qilish yoki boshqa turdagi zararli kontent yoki aloqaga qarshi himoyasiz qilishi mumkin.

Mobil ilovalar orqali tasvir va video almashishning keng ommalashgani, ayniqsa, bolalar tomonidan jonli translyatsiya platformalaridan foydalanish konfidensiallik va xavf-xatarlar to'g'risidagi xavotirlarga sabab bo'ladi. Ba'zi bolalar o'zlari, do'stlari va aka-ukalarini shahvoniy fotosuratga olib, ularni Internetda bo'lishmoqdalar. 2019-yilda IWF tomonidan sarlavha qo'yilgan barcha veb-sahifalarning deyarli uchdan bir qismi (29 foizi) o'zi tomonidan yaratilgan tasvirlardan iborat bo'lgan. Ularning 76 foizi 11-13 yoshdagi qizlarga tegishli bo'lib, ularning aksariyati o'z yotoqxonalarida yoki uylarining boshqa xonalarida olingan. Ba'zilar, ayniqsa katta yoshdagi bolalar uchun bu jinsiy jozibadorlik va jinsiy o'ziga xoslikni tabiiy o'rganish bo'lsa, boshqalar uchun, ayniqsa yosh bolalar uchun, ko'pincha kattalar yoki boshqa bolalar tomonidan majburlash hisoblanadi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, bunday olingan kontentlar ko'plab mamlakatlarda noqonuniy hisoblanadi va bolalarni jinoiy javobgarlikka tortish xavfini keltirib chiqarishi yoki bolaning yanada ko'proq ekspluatatsiya qilinishi, gruming yoki majburlash uchun foydalanishga olib keladi.

Shunga o'xshab, **onlayn o'yinlar** bolalarga o'ynash uchun asosiy huquqlarini amalga oshirish, shuningdek, muhim ko'nikmalarni rivojlantirgan holda kommunikatsiya tarmoqlarini yaratish, do'stlar bilan vaqt o'tkazish va ular bilan muloqot qilish imkonini beradi. Yuqoridagi ijobiy holatlar bo'lsa-da, ba'zi hollarda mas'uliyatli kattalar tomonidan nazorat qilinmaydigan o'yin platformalaridan foydalanadigan bolalar uchun ular xavf tug'dirishi mumkin. Bunga haddan ortiq vaqtni o'yinga sarflash, o'yin ichidagi katta xaridlar bilan bog'liq moliyaviy xavflar, soha vakillari tomonidan bolalarning shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish va ulardan daromad olish, kiberta'qib, haqoratli nutq, zo'ravonlik va nomaqbul xatti-harakatlar yoki kontentga moyillik, gruming, kompyuterda yaratilgan haqiqiy yoki virtual reallik tasvirlari va CSEAni tasvirlaydigan va tasdiqlaydigan videoroliklardan foydalanish kiradi. Bu xavflar faqatgina o'yin muhitiga xos emas, balki bolalar vaqt o'tkazadigan boshqa raqamli muhitlarga ham taalluqlidir.

Bundan tashqari, texnologik ishlanmalar "**buyumlar interneti**"ning paydo bo'lishiga olib keldi, natijada, Internetga ulangan qurilmalar soni va diapazoni ko'payib, Internet orqali muloqot qilish va tarmoqqa kirish imkoniyati ortdi. Ularga o'yinchoqlar, radio-enaga va SI tomonidan boshqariladigan qurilmalar kiradi, ular konfidensiallik va nomaqbul aloqalarga nisbatan xavf tug'dirishi mumkin.

Ilg'or tajriba: tadqiqotlar

Onlayn muhitdagi ta'qib yoki kiberta'qib mavzusida Microsoft kompaniyasi raqamli xavfsizlik va kiberbuling bo'yicha tadqiqot o'tkazdi. 2012-yilda kompaniya tomonidan 25 mamlakatda 8-17 yoshli bolalarning internetdagi salbiy tajribasi haqida so'rovnoma o'tkazdi. Olingan natijalarga ko'ra, ishtirokchilarning o'rtacha 54 foizi Internetda haqorat qilinishidan xavotirda ekanliklari; 37 foizi kiberbulingga uchraganliklari va 24 foizi kimnidir haqorat qilganliklari aniqlangan. Xuddi shu tadqiqot doirasida, har 10 ota-onadan kamida uchtasi o'z farzandlari bilan onlayn muhitdagi ta'qibni muhokama qilgan. 2016-yildan boshlab Microsoft har yili onlayn xavflar bo'yicha **muntazam tadqiqotlar** olib borib, [Raqamli madaniyat indeksi bo'yicha hisobotlar](#) tuzadi.

FACES Yaponiyaning NHK kanali va turli davlat teleradiokompaniyalari konsorsiumi tomonidan yaratilgan multimediali dastur hisoblanadi, uning doirasida butun dunyo bo'ylab onlayn muhitda va haqiqiy hayotda ta'qib qurbonlarining hikoyalari eshittiriladi. O'smirlarning shaxsiy hikoyalari asosidagi bir qator videoroliklar bo'lib, unda qahramonlar internet orqali bo'lgan hujumlarga qanday javob qaytarishganligini kamera orqali bo'lishadilar. Shunday hikoyalarga asoslangan ikki daqiqalik videoroliklar Facebook, **YUNESKO** va **Yevropa Kengashi** tomonidan ham joriy etilgan, bunday videoroliklarni bir necha tillarda ko'rish imkoniyati mavjud.

2019-yilda UNICEF tez rivojlanayotgan ko'ngilochar sohalardan birida bolalar uchun imkoniyatlar va muammolarni hal qilish maqsadida, "**Child Rights and Online Gaming: Opportunities & Challenges for Children and the Industry**" (Bolalar huquqlari va onlayn o'yinlar: bolalar uchun tarmoqda mavjud imkoniyatlar va qiyinchiliklar) mavzuda muhokama ma'ruzasini nashr etdi. Ma'ruzada quyidagi mavzular ko'rib chiqiladi:

- bolalarning o'ynash huquqi va so'z erkinligi (o'yinga sarflanadigan vaqti va sog'liqqa ta'siri);
- kamsitishga yo'l qo'ymaslik, xayrixohlik va zo'ravonlikdan himoya qilish (ijtimoiy o'zaro ishlash va to'la huquqiy kiritish, zaharli muhit, yosh bo'yicha cheklovlar va ularni tekshirish, gruming va shahvoniy suiiste'molliklardan himoya qilish);
- konfidensiallik va iqtisodiy ekspluatatsiyadan ozodlik huquqi (ma'lumotlarga kirish uchun biznes modellari, bepul o'yinlar va ulardan daromad olish, tijorat sohasida shaffoflikning mavjud emasligi).

Ilg'or tajriba: texnologiya

The Google Virtual Reality Action Lab real hayotda va onlayn muhitda yoshlarni ta'qibga qarshilar tomoniga jalb qilishga qanday yordam berishi mumkinligini o'rganadi.¹⁰

2019-yil sentabr oyida BBC o'zining birinchi smartfonini qo'lga kiritgan 8–13 yoshli bolalarning farovonligiga bag'ishlangan **Own IT** (shaxsiy AKT) deb nomlangan mobil ilovasini ishga tushirdi. Ilova BBCning zamonaviy media muhitida yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha majburiyatlarining bir qismi va 2018-yilda Own IT veb-sayti muvaffaqiyatli ishga tushirilganidan keyingi qadam bo'ldi. Ilova bolalarning smartfonlari orqali xatti-harakatlarini kuzatish uchun eng zamonaviy mashinaviy o'qitish texnologiyasini birlashtiradi, shuningdek, bolaga o'z emotsional holatini mustaqil kuzatish birikmasidan iborat. Unda bu ma'lumotlardan bolalarning onlayn muhitda baxtli va ruhiy sog'lom bo'lishlariga yordam berish uchun moslashtirilgan kontent va aralashuvlarni taqdim etishda foydalanadi, ularning xatti-harakatlari me'yor chegarasidan chiqqanda do'stona va qo'llab-quvvatlash eslatmalarini qo'llaydi. Foydalanuvchilar yordam so'raganlarida ilovaga kirishlari mumkin, shu bilan birga maxsus ishlab chiqilgan klaviatura orqali kerak bo'lganda ekranda maslahat va yordam eslatmalari paydo bo'ladi. Ilovaning funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy tarmoqlarda mobil raqamlar kabi shaxsiy ma'lumotlar bilan bo'lishishdan oldin foydalanuvchilarga yana bir marta o'ylab ko'rishni eslatish.
- xabarni jo'natishdan oldin, uni qabul qiluvchi xabarning qanday ta'sir qilishini anglashga yordam berish.
- vaqt o'tishi bilan ularning kayfiyatini kuzatib borish va kerak bo'lganda vaziyatni yaxshilash bo'yicha ko'rsatmalar berish.
- kechqurun telefondan foydalanish va uning foydalanuvchilarning salomatigiga ta'siri kabi mavzular haqida axborot berish.

¹⁰ For more information see, Alexa Hasse et al., "**Youth and Cyberbullying: Another Look**", Berkman Klein Center for Internet & Society, 2019.

Ilovada BBCning turli arxivlaridan maxsus tanlangan kontentlardan foydalaniladi. U yoshlarga onlayn vaqtlaridan unumli foydalanish va onlayn muhitda sog'lom xulq-atvor uslubini va odatlarni shakllantirishga yordam beradigan foydali materiallar va resurslarni taqdim etadi. Bu yoshlar va ota-onalarga ularning onlayn tajribalari haqida ijodiy suhbatlar o'tkazishga yordam beradi, lekin ota-onalarga hisobot yoki teskari aloqa taqdim etmaydi va hech qanday ma'lumot foydalanuvchi qurilmalaridan chiqmaydi. Ilova foydalanuvchi tomonidan yaratilgan hech qanday shaxsiy ma'lumotlar yoki kontentni to'plamaydi, chunki butun mashinaviy o'qitish ilova ichida yuz beradi va o'rnatilgan qurilmada ishlaydi. Konfidensiallik buzilmasligi uchun mashinali o'qitish ma'lumotlari bo'yicha [qurilmalar alohida o'qitiladi](#).

2.1.3 Nogiron bolalarning alohida holati ¹¹

Nogiron bolalar va yoshlar ham nogironligi bo'lmaganlar kabi onlayn xavflarga duch kelishadi, biroq ular nogironligi bilan bog'liq muayyan xavflarga ham duch kelishlari mumkin. Nogiron bolalar va yoshlar ko'pincha chetlanish, noto'g'ri qarash va jamiyat hayotida ishtirok etish uchun to'siqlarga (jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy va munosabat) duch kelishadi. Ushbu to'siqlar nogiron bolaga salbiy ta'sir ko'rsatishi va uni onlayn muhitda ijtimoiy muloqot va do'stlar izlashga olib kelishi mumkin. Bunday o'zaro munosabatlar o'zini hurmat qilish va qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini yaratish orqali ijobiy bo'lishi mumkin, ammo ular bunday bolalarni gruming, onlayn muhitda shahvoniy xatta-harakatlar va/yoki jinsiy zo'ravonlik hodisalari xavfi yuqori bo'lishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, real hayotda qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan va ruhiy xarakterdagi qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar va yoshlar bunday hodisalarga uchrash xavfi yuqori bo'ladi. ¹²

Umuman olganda, real hayotda jabrlangan bolalar onlayn muhitda ham jabrlanishlari mumkin. Bu nogiron bolalarni internetda yuqori xavf ostida qoldiradi, ammo ular onlayn bo'lishga ko'proq ehtiyoj sezadilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nogiron bolalar har qanday turdagi zo'ravonlikka uchrashadi, ¹³ ayniqsa shahvoniy xarakterdagi zo'ravonlikka. ¹⁴ Jabrlanuvchi bolaning haqiqiy yoki idrok etilgan nogironligi yoki nogironligi bilan bog'liq jihatlar, masalan, o'zini tutishi yoki gapirishi, foydalanayotgan qurilmalari yoki xizmatlariga asoslangan qo'rqitish, ta'qib qilish, istisno qilish va kamsitilish kiradi.

Nogiron bolalar va yoshlarga nisbatan gruming, onlayn muhitda shahvoniy tusdagi xatti-harakatlarni bajarishga majburlash va/yoki jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etgan huquqbuzarlar orasida nafaqat sog'lom bolalar va yoshlarni nishonga olgan, balki nogiron bolalar va yoshlarni nishonga olganlar ham bo'lgan. Bunday huquqbuzarlar orasida "devoti" ("fidoyilar") bo'lishi mumkin - nogironligi bor insonlarga nisbatan shahvoniy qiziqishi bor nogiron bo'lmagan shaxs (ko'pincha biron a'zosi amputatsiyalangan va harakatlanish vositalaridan foydalanadigan shaxslar), ularning ba'zilari hatto o'zlarini nogiron qilib ko'rsatadilar. ¹⁵ Bunday odamlarning xatti-harakatlari nogiron bolalar va yoshlarning fotosuratlari va videolarini yuklab olish (bu tabiatan zararsiz bo'lgan insonlar) va/yoki ularni maxsus forumlar yoki ijtimoiy media akkauntlari orqali bo'lishishni o'z ichiga olishi mumkin. Forumlar va ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumot berish ko'pincha bunday xatti-harakatlar o'zaro kesishishini ko'zda tut emas.

¹¹ See Council of Europe, "[Two clicks forward and one click back: report on children with disabilities in the digital environment](#)", 2019.

¹² Andrew Schrock et al., "[Solicitation, Harassment, and Problematic Content](#)", Berkman Center for Internet & Society, 2008.

¹³ UNICEF, "State of the World's Children Report: Children with Disabilities," 2013.

¹⁴ Katrin Mueller-Johnson et al., "[Sexual Victimization of Youth with a Physical Disability: An Examination of Prevalence Rates, and Risk and Protective Factors](#)", Journal of Interpersonal Violence, 2014.

¹⁵ Richard L Bruno, "[Devotees, Pretenders and Wannabes: Two Cases of Factitious Disability Disorder](#)", Sexuality and Disability, 1997.

“Sharenting” (“Bo‘lishish”) (ota-onalar o‘z farzandlari va o‘smir bolalari haqidagi ma’lumotlar va tasvirlarni internetga joylashtirish) bolaning shaxsiy daxlsizligini buzishi, qo‘rqitish va sharmandalikka olib kelishi yoki kelajakdagi hayotda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida xavotirlar mavjud.¹⁶ Nogiron bolalarning ayrim ota-onalari ko‘mak yoki maslahat olish uchun farzandlari haqidagi axborot yoki ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida bo‘lishishlari mumkin, natijada o‘z farzandlarini hozir ham, kelajakda ham maxfiylikning buzilishi xavfi ostida qoldiradilar. Bunday ota-onalar, shuningdek, bolaning nogironligini davolash, shifo topish yoki “tuzalib ketish”ni taklif qiladigan, hech qanday ma’lumoti bo‘lmagan vijdotsiz odamlar tomonidan nishonga aylanish xavfi ham bor. Xuddi shunday, nogiron bolalar va yoshlarning ba’zi ota-onalari o‘z farzandining Internetdan foydalanishiga qanday ko‘rsatmalar berish borasida ularni ta’qib yoki shilqimlikdan himoya qilish bo‘yicha bilimlari yo‘qligi sababli haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilishlari mumkin.¹⁷

Ba’zi nogiron bolalar va yoshlar kirish imkoni bo‘lmagan tuzilmalar (masalan, matn hajmini kattalashtirish imkoni ko‘zda tutilmagan ilovalar), so‘ralgan qulayliklarni rad etish (masalan, ekrandan o‘qish uchun dasturiy ta’minot yoki moslashgan boshqaruv vositalari) yoki tegishli qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj (masalan, qurilmadan foydalanishni o‘rgatish yoki ijtimoiy o‘zaro ishlaganda individual qo‘llab-quvvatlash) tufayli onlayn muhitdan foydalanishda qiyinchiliklarga yoki hatto undan chetlatishga duch kelishlari mumkin.¹⁸

2.2 Bolalarni onlayn muhitda himoya qilish uchun mavjud milliy va transmilliy modellar

Global miqyosda bolalar va yoshlarning onlayn muhitda xavfsizligini ta’minlash uchun bir nechta modellar qabul qilingan. Tarmoqdagi manfaatdor tomonlar ushbu Rahbariy ko‘rsatmalarni xalqaro tashabbuslar doirasida hamda bolalar va yoshlarni internetda himoya qilish uchun hech qanday sa’y-harakatlarini ayamasligini ta’minlash uchun asos sifatida hisobga olishlari kerak. Internet tarmog‘i - bu turli o‘lcham va funksiyalarga ega bo‘lgan kompaniyalardan tashkil topgan turli-tuman va murakkab sohadir. Bolalarni himoya qilishga nafaqat kontent bilan shug‘ullanuvchi platformalar va xizmatlar, balki Internet infratuzilmasini ta’minlovchilar tomonidan ham e’tibor qaratilishi muhim.

Shuni ta’kidlash kerakki, bolalarni himoya qilish bo‘yicha keng qamrovli siyosatni joriy etish uchun tarmoqning imkoniyatlari mavjud resurslar bilan cheklangan. Shu sababli, ushbu Rahbariy ko‘rsatmalar turli tarmoq tashkilotlarini foydalanuvchilarni himoya qilish xizmatlarini joylashtirish uchun birgalikda ishlashni tavsiya qiladi. Resurslar va texnik tajribadan birgalikda foydalanish ular orqali tarmoqlardagi zo‘ravonlikning oldini olish uchun “xavfsiz muhit” ni yanada samarali yaratishi mumkin edi.

Tarmoq kooperatsiyasi

Texnologiyalar koalitsiyasi (The Technology Coalition) CSEAgga qarshi kurashish uchun tarmoqdagi manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning namunasidir.

Transmilliy modellar

Tarmoq tashkilotlari o‘z tuzilmaviy dasturiga tegishli xalqaro rahbariy ko‘rsatmalarni kiritishi, shuningdek, ular faoliyat yuritayotgan mamlakatlarda amal qiladigan har qanday tegishli milliy yoki transmilliy qonunchilikka rioya qilishi kerak. Tarmoq nafaqat qonun doirasida amalga oshirishi kerak bo‘lgan harakatlarni, balki qanday harakatni amalga oshirishi mumkinligini ham ko‘rib chiqishi va iloji bo‘lsa, global miqyosda tashabbuslarni amalga oshirishga intilishi kerak.

¹⁶ UNICEF, “[Child Privacy in the Age of Web 2.0 and 3.0: Challenges and opportunities for policy](#)”, Innocenti Discussion Paper 2017-03.

¹⁷ UNICEF, “[Is there a ladder of children’s online participation?](#)”, Innocenti Research Brief, 2019.

¹⁸ For guidelines on these rights, see the [United Nations Convention on the Rights of Persons with Disabilities and Optional Protocol](#), especially Article 9 on accessibility and Article 21 on freedom of expression and opinion, and access to information.

Bunday tashabbuslar uchun tamoyillarni o'z ichiga olgan modellarga quyidagilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin:

- Beshta davlat hukumatlarining [Internetdagi CSEAg qarshi turishning ixtiyoriy tamoyillari](#) (2020);
- Barqaror rivojlanish bo'yicha keng polosali tarmoq komissiyasining, [Bolalarning onlayn muhitda xavfsizligi: onlayn zo'ravonlik, suiiste'mol qilish va ekspluatatsiya xavfini minimallashtirish](#) (2019);
- WePROTECT Global ittifoqi, [Bolalarning onlayn muhitda jinsiy ekspluatatsiyasi va jinsiy suiiste'mol qilinishiga global strategik javob](#) (2019);
- Bolalarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish uchun global hamkorlik, [Xavfsiz O'rganish: harakatga da'vat](#);
- Raqamli dunyoda bolaning qadr-qimmati, [Bola qadr-qimmati ittifoqi: Texnologik ishchi guruhi hisoboti](#) (2018);
- Yevropa Parlamenti va Yevropa Kengashining 2018/1808-sonli direktivasi (YI) : [Audiovizual media xizmatlari bo'yicha direktiva](#);
- Yevropa Komissiyasining shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (2018);
- Bolalarni onlayn muhitda himoya qilish bo'yicha OECD tavsiyalari (2012).

Milliy modellar

Bolalarning onlayn muhitda himoyasini ta'minlashda texnologiya tarmog'ining aniq o'rni va javobgarligini belgilab beruvchi bir qator milliy va xalqaro modellar mavjud. Ulardan ba'zilari to'g'ridan-to'g'ri bolalarga xos emas, lekin Internet foydalanuvchilari sifatida ularga tegishli bo'lishi mumkin. Ular tartibga solish siyosati, standartlar va boshqa tarmoqlar bilan hamkorlik bo'yicha tarmoqqa umumiy ko'rsatmalar beradi. Ushbu hujjatning maqsadli yo'nalishi uchun bunday modellarning AKT tarmog'iga taalluqli asosiy tamoyillarini ajratib o'tamiz.

Yoshga mos dizayn kodeksi, Buyuk Britaniya

2019-yil boshida Axborot komissarligi bolalar ma'lumotlarini himoya qilish maqsadida o'zining yoshga mos dizayn kodeksi bo'yicha takliflarni e'lon qildi. Taklif etilayotgan kodeks Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida belgilab qo'yilgan bolaning eng yaxshi manfaatlariga asoslanadi va tarmoq uchun bir qancha talablarni belgilaydi. Kod o'n besh standartdan iborat, jumladan, bolalar uchun joylashuv manzilini aniqlash xizmatlarining shartli ravishda o'chirilgan bo'lishi, tarmoq uchun faqat minimal miqdordagi bolalar shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va saqlash, mahsulotlar dizayni shaxsiy bo'lishi va tushuntirishlar yoshga mos bo'lishi kabilardir.

Zararli raqamli aloqa qonuni, Yangi Zelandiya

2015-yil [Qonun](#) kiber suiiste'molni o'ziga xos jinoyat sifatida qabul qildi va kiberbullingdan qasos pornografiyasigacha bo'lgan keng ko'lamlil zararlarga e'tibor qaratadi. U zararli raqamli aloqani ushlab turish, oldini olish va kamaytirishga qaratilgan bo'lib, raqamli aloqani boshqa birovga jiddiy ruhiy zarba berish maqsadida joylashtirishni noqonuniy qiladi va bir qator 10 ta aloqa tamoyillarini belgilaydi. U foydalanuvchilarga, ushbu tamoyillar buzilgan taqdirda, mustaqil tashkilotga shikoyat qilish yoki muammo hal etilmasa, xabar muallifi yoki aloqa tuguniga qarshi sud qarorlarini talab qilish huquqini beradi.

Elektron xavfsizlik bo'yicha komissari, Avstraliya

2015-yilda Avstraliyada tashkil etilgan [Onlayn xavfsizlik bo'yicha komissari](#)-bu onlayn suiiste'mollikka qarshi kurashish va o'z fuqarolarini Internetda xavfsiz saqlashga bag'ishlangan dunyodagi birinchi davlat organidir. Onlayn xavfsizlik bo'yicha milliy mustaqil regulyator sifatida Safety by Design funksiyalarning kuchli jamlanmasiga ega. Bular xabardorlikni oshirish, ta'lim, tadqiqot va ilg'or amaliyot ko'rsatmalari orqali oldini olishdan tortib, kiberbuling, tasvirga asoslangan suiiste'mollik va noqonuniy onlayn kontentni tezda yo'q qilish qudratini beruvchi ko'plab qonuniy tartibga solish sxemalari orqali erta aralashuv va zararni bartaraf etishgacha bo'lgan amallarni nazorat qilishga imkon beradi. Ushbu keng ko'lamli vakolat Safety by Design ga onlayn xavfsizlikni serqirra, yaxlit va faol tarzda hal qilish imkonini beradi.

2018-yilda Onlayn xavfsizlik bo'yicha komissari foydalanuvchilarning xavfsizligi va huquqlarini onlayn mahsulotlar va xizmatlarni loyihalash, ishlab chiqish va joriy etishni markaziga qo'yuvchi "Safety by Design" (SbD) tashabbusini ishlab chiqdi. Dizayn tamoyillari bo'yicha xavfsizlik to'plami tashabbusning markazida bo'lib, ular tarmoq uchun fuqarolarni onlayn himoya qilish va himoya qilish uchun amalga oshirishi kerak bo'lgan haqiqiy, harakatga keltiriladigan va erishish mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Quyida uchta umumiy tamoyillar keltirilgan:

1) Xizmat ko'rsatuvchi provaydarning majburiyatlari: xavfsizlik yuki hech qachon faqat oxirgi foydalanuvchi zimmasiga tushmasligi kerak. Onlayn xizmatni loyihalash va taqdim etishda ma'lum va kutilgan zaralar baholanganligini ta'minlash uchun profilaktika choralarini ko'rilishi darkor, shuningdek xizmatlarning noqonuniy va nomaqbul xatti-harakatlarni osonlashtirishi, ishtiyoqni oshirishi yoki rag'batlantirishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan choralar ko'rilishi lozim.

2) Foydalanuvchining vakolatlari va avtonomiyasi: foydalanuvchilarning qadr-qimmatini va ularning manfaatlarini asosiy ahamiyatga ega. Xizmat dizaynida inson vakolati va avtonomiyasi qo'llab-quvvatlanishi, kuchaytirilishi va mustahkamlanishi kerak, bu foydalanuvchilarga o'z tajribalarini ko'proq nazorat qilish, boshqarish va tartibga solish imkonini beradi.

3) Shaffoflik va javobgarlik: bular xavfsizlikka mustahkam yondashishning o'ziga xos belgilari bo'lib, xizmatlar o'zlarining e'lon qilingan xavfsizlik maqsadlariga muvofiq ishlashiga kafolat beradi, shuningdek, xavfsizlikka oid muammolarni hal qilish uchun ko'rilishi mumkin bo'lgan choralar haqida jamoatchilikni xabardor qiladi.

WyePROTECT Global Ittifoqi

[WyePROTECT Global Ittifoqi](#) tomonidan qabul qilingan strategiya markazida mamlakatlarni bolalarning onlayn jinsiy ekspluatatsiyasiga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtirilgan ko'p manfaatdor tomonlarning javoblarini ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlamoda, bu milliy harakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qiluvchi milliy javob modeliga asoslanadi. U bolalarning onlayn jinsiy ekspluatatsiyasiga qarshi kurashish uchun davlatlarga asos yaratadi. WyePROTECT Modeli milliy javobi doirasida AKT kompaniyalarining quyidagi vazifalarga oid aniq majburiyatlari mavjud:

- ogohlantirish va uzib qo'yish tartiblari;
- bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi va zo'ravonligi (CSEA) haqida onlayn xabar berish;
- texnologik yechimlarni ishlab chiqish;
- samarali COP profilaktika dasturlari va javob xizmatlariga sarmoya kiritish.

Global hamkorlik va bolalarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish jamg'armasi

[Global hamkorlik va bolalarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish jamg'armasi](#) 2016-yilda BMT Bosh kotibi tomonidan bir maqsad: barcha sohalardagi 400 dan ortiq hamkorlarning noyob hamkorligi orqali 2030-yilgacha bolalarga nisbatan zo'ravonlikning

barcha shakllariga barham berish bo'yicha harakatlarni kuchaytirish va qo'llab-quvvatlash bilan boshlangan.

Ishning asosiy yo'nalishi qurbonlarni qutqarish va qo'llab-quvvatlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish uchun texnologik yechimlar, huquqni muhofaza qilish organlarini qo'llab-quvvatlash, qonunchilik va siyosiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, onlayn CSEA miqyosi va tabiati bo'yicha ma'lumotlar va dalillarni yaratish, shuningdek, bolalarning istiqbollarini tushunishlarni o'z ichiga oladi.¹⁹

¹⁹ For more information see End Violence Against Children, "[Grantees of the End Violence Fund](#)".

3 Bolalar huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari

Ushbu bo'limda kompaniyalar AKTdan foydalanishda bolalar va yoshlar xavfsizligini himoya qilish va ularning AKTdan ijobiy foydalanishini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar uchun **beshta asosiy yo'nalishni** belgilaydi.

3.1 Bola huquqlari bo'yicha tushunchalarni barcha tegishli korporativ siyosat va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish

Bola huquqlariga oid mulohazalarni birlashtirish kompaniyalardan bolalar huquqlariga potentsial va haqiqiy salbiy ta'sirlarni aniqlash, oldini olish, yumshatish va kerak bo'lganda bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko'rishni talab qiladi. BMTning Tadbirkorlik faoliyati va inson huquqlari bo'yicha asosiy tamoyillari barcha tadbirkorlik va sohalarni inson huquqlarini hurmat qilish javobgarligini oshirish uchun tegishli siyosat va jarayonlarni joriy etishga chaqiradi.

Tarmoq korxonalarini bolalar va yoshlarga ularning ma'lumotlarini himoya qilish va so'z erkinligi nuqtai nazaridan zaif guruh sifatida alohida e'tibor qaratishlari kerak. [BMT Bosh Assambleyasining 68/167 rezolyutsiyasi](#) raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqi to'g'risida qonunga xilof aralashuvlarga duchor bo'lmasdan shaxsiy hayot va so'z erkinligi huquqini yana bir bor tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari kengashi [32/13 rezolyutsiyasi](#) Internetda inson huquqlarini targ'ib qilish, himoya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha, Internetning global va ochiq tabiatini rivojlanish sari olg'a siljishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida tan oladi va odamlar oflayn rejimdagi huquqlari onlayn tarzda ham xuddi shunday himoya qilinishi kerakligini tasdiqlaydi. Bolalar va yoshlarning shaxsiy daxlsizlik va so'z erkinligiga bo'lgan huquqlarini himoya qilish bo'yicha tegishli huquqiy asoslar mavjud bo'lmagan davlatlarda kompaniyalar siyosat va amaliyotlar xalqaro huquqqa mos kelishini ta'minlash uchun kengaytirilgan tekshiruvdan o'tishi lozim. Onlayn muloqotlar orqali yoshlarning fuqarolik faolligi ortib borar ekan, kompaniyalarning bolalar va yoshlar huquqlarini hurmat qilish mas'uliyati ortib bormoqda, hatto ichki qonunlar hali xalqaro standartlarga mos kelmagan bo'lsa ham bu javobgarlik o'z kuchida qoladi.

Kompaniyalar zarar ko'rgan shaxslarga potentsial huquqbuzarliklar to'g'risida ogohlantirishlari uchun formatni taqdim etish maqsadida tezkor darajadagi shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmgiga ega bo'lishi kerak. Operatsion darajadagi mexanizmlar bolalar, ularning oilalari va ularning manfaatlarini ifodalovchilar uchun foydalanishga ochiq bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati va inson huquqlari bo'yicha yetakchi tamoyillarning 31-tamoyilida bunday mexanizmlar qonuniy, foydalanish mumkin, bashorat qilinadigan, adolatli, shaffof, huquqlarga mos, uzluksiz o'rganish manbai hamda ishtirok etish va muloqotga asoslangan bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari salbiy ta'sirlarni bartaraf etish bo'yicha ichki jarayonlar bilan birgalikda kompaniyalarda bolalar va yoshlarning huquqlari tahdid ostida qolganda tegishli murojaat qilishlarini ta'minlash uchun asoslar mavjudligini ta'minlashi kerak.

Kompaniyalar milliy qonunchilikka rioya qilishga, milliy qonunchilik mavjud bo'lmaganda xalqaro ko'rsatmalarga amal qilishga hamda bolalar va yoshlar huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan AKT xavfsizligiga muvofiqlik asosidagi yondashuvni qo'llasa, kompaniyalar bolalar va yoshlarning rivojlanishi va farovonligini faol ravishda bolalar va yoshlarning axborot olish, so'z erkinligi, ishtirok etish, ta'lim va madaniyatga bo'lgan huquqlarini ilgari suradigan ixtiyoriy harakatlar orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Ilg'or tajriba: Siyosat va yoshga mos dizayn

[Toka Boka](#) ilovasi ishlab chiqaruvchisi bolalar qarashlarini inobatga olib raqamli o'yinchoqlar ishlab chiqaradi. Kompaniyaning [maxfiylik siyosati](#) kompaniya qanday ma'lumotlarni to'plashi va undan qanday foydalanilishi haqida tushuntirishi uchun mo'ljallangan. [Toca Boca](#),

Inc PRIVO Kids Privacy Assured COPPA “Xavfsiz muhit” sertifikatlash dasturi a’zosi bo’lib hisoblanadi.

LEGO® Life 13 yoshgacha bo’lgan bolalar o’zlarining LEGO ijodlarini bo’lishishlari, ilhom olishlari va xavfsiz muloqot qilishlari uchun xavfsiz ijtimoiy media platformasining namunasi bo’lib hisoblanadi. Bu yerda bolalardan ro’yxatdan o’tish uchun shaxsiy ma’lumotlar so’ralmaydi, bunga faqat ota-ona yoki vasiyning elektron pochta manzili bilan kirish mumkin. Ilova bolalar va oilalar uchun ijobiy muhitda onlayn xavfsizlik va maxfiylikni muhokama qilish imkoniyatini beradi.

Yoshga mos dizaynga misollar qatoriga ayrim yosh guruhlar uchun asosiy davlat teleradiokompaniyalarining maxsus takliflari kiradi: masalan, nemis ARD (Arbeitsgemeinschaft der öffentlich-rechtlichen Rundfunkanstalten der Bundesrepublik Deutschland – Das Erste) va ZDF (Zweites Deutsche Fernsehen) ularning foydalanuvchilarining yoshi 14 yoshdan boshlanadi, onlayn kanal orqali moslashtirilgan [funk.net](#) kontentni taklif qiladi. BBC (British Broadcasting Corporation) tomonidan 6 yoshgacha bo’lgan bolalarga mo’ljallangan [CBeebies](#) loyihasi ishga tushurildi. Veb-sayt tarkibi tegishli yosh guruhlar uchun maxsus mo’ljallangan.

Ilg’or tajriba: siyosat va texnologiya

Twitter doimiy ravishda xususiy texnologiyaga sarmoya kiritadi, bu esa odamlarning hisobot berish yukini barqaror ravishda kamaytirishga yordam berdi.²⁰ Xususan, Twitter o’zining haqoratli tabiatiga javoban kuzatadigan tvitlarning 50 foizdan ortig’i (2018-yildagi 20 foizga nisbatan) hozirda Twitterdagi xabarlariga tayanmasdan, texnologiyadan foydalangan holda faol ravishda paydo bo’lmoqda. Yangi texnologiya shaxsiy ma’lumotlar, nozik axborot uzatish vositalari, nafratli xatti-harakatlar, suiiste’mollik va taqlid qilishning siyosat mazmunidagi sohalari bilan shug’ullanish uchun foydalaniladi.

3.2 CSAM bilan ishlash uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish

2019-yilda IWF veb-sahifada bolalarning jinsiy zo’ravonligi borligi tasdiqlangan 132 676 ta veb-sahifaga nisbatan qat’iy choralar ko’rdi.²¹ Har qanday URLda yuzlab, balki minglab tasvir va videolar bo’lishi mumkin. IWF tomonidan bloklangan tasvirlarning 45 foizi 10 va undan kichik yoshdagi bolalarning tasviri; va 1609 ta veb-sahifa 0-2 yoshdagi bolalarning tasvirlari bo’lgan, ularning 71 foizi zo’rlash va jinsiy qiynoqlar kabi eng og’ir jinsiy zo’ravonlikni o’z ichiga olgan. Ushbu tashvishga soluvchi faktlar tarmoq, hukumatlar, huquqni muhofaza qilish organlari va fuqarolik jamiyati o’rtasida CSAMga qarshi kurashishda hamkorlik qilish muhimligini ko’rsatadi.

Ko’pgina hukumatlar qonunlar qabul qilish, zo’ravonlik qiluvchilarni ta’qib qilish va jinoiy javobgarlikka tortish, xabardorlikni oshirish, bolalar va yoshlarni zo’ravonlik yoki ekspluatatsiyadan qutulishga ko’maklashish orqali CSAMni tarqatish bilan shug’ullanayotgan bo’lsa-da, ko’plab mamlakatlarda hali yetarli tizimlar mavjud emas. Har bir mamlakatda keng jamoatchilikka bunday xususiyatga ega haqoratli va ekspluatatsiya mazmuni haqida xabar berish uchun mexanizmlar talab qilinadi. Tarmoq, huquq-tartibot idoralari, hukumatlar va fuqarolik jamiyati xalqaro standartlarga mos keladigan tegishli qonunchilik bazasini yaratish uchun birgalikda harakat qilishi kerak. Bunday tuzilmalar CSEning barcha shakllarini, shu jumladan CSAMni ham jinoyat deb hisoblashi va bunday zo’ravonlik yoki ekspluatatsiya qurboni bo’lgan bolalarni himoya qilish lozim. Ushbu tizimlar hisobot berish, tekshiruvlar va kontentni olib tashlash jarayonlarining iloji boricha samarali ishlashini ta’minlashi kerak.

²⁰ Twitter, “15th Transparency Report: Increase in proactive enforcement on accounts”.

²¹ IWF, “The why. The how. The who. And the results. Annual Report 2019”.

Tarmoq milliy ishonch telefonlari yoki boshqa mahalliy ishonch telefonlariga havolalarni taqdim etishi kerak, masalan, ba'zi mamlakatlardagi IWF portallari va mahalliy hisobot berish imkoniyatlari mavjud bo'lmaganda, AQSH [Yo'qolgan va ekspluatatsiya qilingan bolalar milliy markazi](#) ([National Center for Missing and Exploited Children \(NCMEC\)](#)) yoki [Internet ishonch telefoni xalqaro assotsiatsiyasi](#) [International Association of Internet Hotlines \(INHOPE\)](#)) kabi boshqa xalqaro ishonch telefonlariga havolalarni taqdim etishi kerak, bu yerda har qanday xalqaro ishonch telefonlari hisobot topshirish uchun ishlatilishi mumkin.

Mas'ul kompaniyalar o'z tarmoqlari va xizmatlaridan CSAMni tarqatishda foydalanilishining oldini olish uchun bir qator choralar ko'rmoqdalar. Bularga bunday mazmun yoki xatti-harakatni aniq taqiqlovchi shartlar va qoidalarga kontentni kiritish kiradi;²² ishonchli ogohlantirish va olib tashlash jarayonlarini ishlab chiqish; milliy ishonch telefonlari bilan ishlash va ularni qo'llab-quvvatlash kabilar kiradi.

Bundan tashqari, ba'zi kompaniyalar CSAMni almashish uchun o'z xizmatlari yoki tarmoqlaridan noto'g'ri foydalanishning oldini olish uchun texnik choralarni qo'llaydilar. Misol uchun, ba'zi Internet-provayderlar, agar veb-sayt tezda o'chirilishini ta'minlash uchun chora-tadbirlar mavjud bo'lmagan mamlakatda joylashgan bo'lsa, tegishli tashkilot tomonidan CSAMni o'z ichiga olganligi tasdiqlangan URL manzillariga kirish bloklanmoqda. Boshqalar esa huquqni muhofaza qilish organlariga yoki ishonch telefonlariga ma'lum bo'lgan bolalar jinsiy zo'ravonligi tasvirlarini avtomatik aniqlash va o'chirish uchun xeshlash texnologiyalarini qo'llaydi. Tarmoq a'zolari bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik tarqalishining oldini olish uchun o'z faoliyati uchun barcha tegishli xizmatlarni ko'rib chiqishlari va birlashtirishlari lozim.

Tarmoq subyektlari mutanosib resurslarni ajratish majburiyatini olishlari va CSAMni aniqlash va yo'q qilish uchun ochiq manbali texnologik yechimlarni ishlab chiqish va almashishni davom ettirishlari kerak.

Ilg'or tajriba: texnologiya

Microsoft texnologiyasining o'ziga, o'zini o'zi boshqarishga, hamkorlikka, iste'molchilarga, ta'limga e'tibor qaratgan holda texnologiyalardan mas'uliyatli va xavfsiz foydalanishni rivojlantirish uchun to'rt tomonlama yondashuvdan foydalanadi. Microsoft shuningdek, jismoniy shaxslarga o'zlarining onlayn xavfsizligini yanada samarali boshqarishga yordam beradigan funksiyalarni o'rnatgan. "Oila xavfsizligi" ana shunday funksiyalardan biri bo'lib, ot-onalar va vasiylarga farzandlarining internetdan foydalanishini kuzatish imkonini beradi.

Microsoft o'z platformalarida ta'qiblarga qarshi siyosatlarni qo'llaydi va bu qoidalarni buzgan foydalanuvchilar hisobi tugatilishi yoki jiddiyroq buzilish holatlarida huquqni muhofaza qilish choralari ko'riladi.

Microsoft PhotoDNA tasvirlar xeshlarini yaratadigan va ularni hozirgacha ma'lum bo'lgan va CSAM ekanligi tasdiqlangan xeshlar bazasi bilan taqqoslaydigan vositadir. Agar u moslikni topsa, tasvir bloklanadi. Ushbu vosita kontent provayderlariga millionlab noqonuniy tasvirlarni Internetdan olib tashlash imkonini berdi; bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik qilganlarni mahkum etishga yordam berdi; va ba'zi hollarda huquqni muhofaza qilish organlariga potentsial jabrlanuvchilarni jismoniy zarar ko'rishdan oldin qutqarishda yordam bergan. Microsoft uzoq vaqtdan beri o'z mijozlarini o'z mahsulotlari va xizmatlaridagi noqonuniy kontentdan himoya qilib keladi va noqonuniy videolarning o'sishiga qarshi kurashish uchun kompaniya yaratgan texnologiyani qo'llash mantiqiy keyingi qadam edi. Biroq, bu vosita yuzni aniqlash texnologiyasidan foydalanmaydi va tasvirdagi shaxs yoki obyektligini aniqlay olmaydi. Biroq, Video uchun PhotoDNA ixtirosi bilan ishlar yangi tus oldi. Video uchun PhotoDNA videoni asosiy kadrlarga ajratadi va ushbu skrinshotlar uchun xeshlarni yaratadi. PhotoDNA aniqlanmaslik uchun o'zgartirilgan tasvirga mos kelishi kabi, Video uchun

²² Shuni ta'kidlash kerakki, foydalanuvchining nomaqbul xatti-harakati CSAM bilan cheklanmaydi va har qanday turdagi nomaqbul xatti-harakatlar yoki kontent kompaniya tomonidan tegishli tarzda ko'rib chiqilishi kerak.

PhotoDNA tahrirlangan yoki dastlab zararsiz ko'ringan videoga qo'shilgan bolalar jinsiy ekspluatatsiyasi mazmunini topishi mumkin.

Bundan tashqari, Microsoft yaqinda onlayn chatlarda bolalarni suiiste'mol qilishga tayyorlaydigan bolalar zo'ravonlarini aniqlash uchun yangi vositani chiqardi. The Meet Group, Roblox, Kik va Thorn bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Artemis loyihasi Microsoftning patentlangan texnologiyasiga asoslanadi va Thorn orqali chat funksiyasini taklif qiluvchi malakali onlayn xizmat ko'rsatadigan kompaniyalarga bepul taqdim etiladi. Project Artemis - bu chat xonalarida moderatsiya zarur bo'lganda ma'murlarga "qizil bayroqlar"ni ko'rsatishga yordam beradigan texnologik vosita. Ushbu grumingni aniqlash usuli yordamida bolalarni jinsiy maqsadlarda jalb qilishga urinayotgan zo'ravonlarni aniqlash, ularga qarshi choralar ko'rish va ular haqida xabar berish mumkin bo'ladi.

IWF o'z foydalanuvchilarini CSAMdan himoya qilish uchun tarmoq a'zolariga bir qator xizmatlarni taqdim etadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Jonli translyatsiya vaqtida bloklangan URLning sifatli dinamik ro'yxati;
- CSAM bilan bog'liq ma'lum jinoiy kontentning xeshlar ro'yxati;
- CSAM bilan bog'langan sirli atamalarning noyob kalit so'zlar ro'yxati;
- Noqonuniy kontentni joylashtiradigan domenlarni tezda olib tashlash imkonini beruvchi bolalar jinsiy zo'ravonlik mazmunini joylashtirish bilan tanilgan domen nomlari tafsilotlari ro'yxati.

3.3 Xavfsiz va yoshga mos keladigan onlayn muhitni yaratish

Hayotimizda kam narsalar har doim mutlaqo xavfsiz va xatarsiz deb hisoblanishi mumkin. Yo'l harakati qat'iy tartibga solinadigan va qat'iy nazorat qilinadigan shaharlarda ham avtohalokatlar ro'y berib turadi. Xuddi shu nuqtai nazardan, kibermakon, ayniqsa, bolalar va yoshlar uchun xavf-xatarlardan xoli emas. Bolalar va yoshlarni onlayn muhitda qabul qiluvchilar, ishtirokchilar va ijrochilar deb hisoblash mumkin. Ular duch keladigan xavflarni to'rtta yo'nalishga ajratish mumkin:²³

- *Nomaqbul kontent* – Bolalar va yoshlar xabarda, blogda yoki fayllarni almashishda, ehtimol, zararsiz havolani bosish orqali boshqa biror narsani qidirishda nomaqbul va noqonuniy kontentga duch kelishlari mumkin. Ular, shuningdek, nomaqbul yoki yoshlariga mos bo'lmagan materiallarni izlashlari va bo'lishlari mumkin. Turli mamlakatda zararli deb hisoblangan kontent o'zaro farq qiladi; misol uchun giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish, irqiy nafrat, xavfli xatti-harakatlar, o'z joniga qasd qilish, anoreksiya yoki zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlar bo'lishi mumkin.
- *Noto'g'ri xatti-harakatlar*- Bolalar va kattalar Internetdan boshqa odamlarni bezovta qilish yoki hatto ekspluatatsiya qilish uchun foydalanishlari mumkin. Bolalar ba'zan haqoratli sharhlar yoki sharmandali tasvirlarni tarqatishi, kontentni o'g'irlashi yoki mualliflik huquqlarini buzishlari mumkin.
- *Noto'g'ri aloqa*– Kattalar ham, yoshlar ham bolalarni yoki boshqa zaif yoshlarni topish uchun Internetdan foydalanishlari mumkin. Ko'pincha, ularning maqsadi mazmunli munosabatlarni rivojlantirganiga ishonirishdir, ammo asosiy maqsad manipulyatsiya qilishdir. Ular veb-kamera yoki boshqa yozib olish moslamasidan foydalanib, bolani jinsiy yoki boshqa zo'ravonliklarni onlayn tarzda amalga oshirishga ko'ndirishlari yoki ular shaxsan uchrashishga va jismoniy aloqani tashkil etishga harakat qilishlari mumkin. Bu jarayon ko'pincha "gruming" deb ataladi.
- *Tijoriy xavflar*– Bu turkumda bolalar ma'lumotlarini to'plash va ulardan foydalanish, shuningdek, raqamli marketing bilan bog'liq ma'lumotlar maxfiyligiga oid xavflarni

²³ Sonia Livingstone et al., "EU Kids Online: Final Report", London school of economics, 2009.

nazarda tutadi. Onlayn xavfsizlik jamiyat muammosi bo'lib, tarmoq, hukumatlar va fuqarolik jamiyati uchun xavfsizlik tamoyillari va amaliyotlarini o'rnatish uchun birgalikda ishlashga da'vatdir. Tarmoq ota-onalar, bolalar va yoshlar uchun bir qator texnik yondashuvlar, vositalar va xizmatlarni taklif qilishi mumkin va birinchi navbatda ulardan foydalanish oson, dizayni xavfsiz va keng foydalanuvchilar doirasi uchun yoshga mos mahsulotlar yaratishi lozim. Bolalarning shaxsiy daxlsizligiga bo'lgan huquqlarini hurmat qiladigan hamda bolalar va yoshlarning yoshiga mos kelmaydigan kontentga kirishiga cheklovlar qo'yadigan tegishli yoshni tekshirish tizimlarini ishlab chiqish vositalarini taklif qilish, yoki bolalar aloqada bo'lishi mumkin bo'lgan odamlarni yoki ular Internetga kirish vaqtlarini cheklash kabi qo'shimcha yondashuvlar ham bo'lishi mumkin. Eng muhimi, "dizayn bo'yicha xavfsizlik"²⁴ innovatsiyalar va mahsulotni loyihalash jarayonlariga maxfiylikni o'z ichiga olgan chegaralar kiritilishi kerak. Bolalar xavfsizligi va texnologiyadan mas'uliyatli foydalanishni ortga surmasdan oldindan tahlil qilinishi va choralar ko'rilishi kerak.

Ba'zi dasturlar ota-onalarga o'z farzandlari va yoshlar yuboradigan hamda qabul qiladigan matnlar, boshqa xabarlarini kuzatish imkonini beradi. Agar bunday turdagi dasturlardan foydalanishga ehtiyoj bo'lsa, buni bola bilan ochiq muhokama qilish muhim, aks holda bunday xatti-harakatlar "josuslik" sifatida talqin etilishi va ota-onaga bo'lgan ishonch buzilishi mumkin.

Foydalanish qoidalari - bu kompaniyalar kattalar va bolalar tomonidan qanday xatti-harakatlar mumkinligi, qanday xatti-harakatlar qabul qilinishi mumkin emasligi va ushbu qoidalarining har qanday buzilishi qanday oqibatlariga olib kelishini aniqlashning usullaridan biridir. Kontent va xatti-harakatlardan xavotirda bo'lgan foydalanuvchilar uchun aniq va shaffof hisobot mexanizmlari taqdim etilishi kerak. Bundan tashqari, hisobotning holati to'g'risida ma'lumotni o'z vaqtida taqdim etgan holda, hisobotni tegishli ravishda muntazam olib borish kerak. Garchi kompaniyalar har bir holatda kuzatuv mexanizmlarini qo'llayotgan bo'lsa-da, javoblar uchun aniq vaqt oralig'ini belgilash, hisobot bo'yicha qabul qilingan qarorni e'lon qilish va olingan javoblardan qoniqmagan foydalanuvchiga kuzatishni davom ettirishning boshqa usulini taklif qilish lozimdir.

Ilg'or tajriba:muammolar haqida xabar berish

Facebook raqamli platformalarda jinsiy zo'rvonlikka chek qo'yish maqsadida Yevropa Ittifoqi bilan Childnet, Save the Children, Kek Vonal va UCLan o'rtasidagi hamkorlik bo'yicha **deSHAME** loyihasini moliyalashtirdi. Ushbu loyiha voyaga yetmaganlar o'rtasida onlayn jinsiy zo'rvonlik haqida xabar berishni oshirish hamda bu xatti-harakatlarning oldini olish va unga javob berishda ko'p tarmoqli hamkorlikni yaxshilashga qaratilgan.

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri foydalanuvchilarni bezovta qiluvchi yoki nomaqbul kontent haqida xabar berishga da'vat qilish uchun, Facebook ning Jamiyat standartlari ham Facebook da ruxsat etilgan yoki taqiqlangan xatti-harakatlar bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar sifatida qabul qilinishi mumkin. Ularda, shuningdek, foydalanishga ruxsat berilmagan foydalanuvchilar turlari ham aniqlangan. Facebook shuningdek, "Siz bu odamni taniysizmi?" kabi xavfsizlik funksiyalarini, xususan, foydalanuvchi tanimaydigan odamlardan yangi xabarlarini to'playdigan "boshqa" pochta qutisi; va voyaga yetmagan bolaga ular bilmagan kattalar murojaat qilayotgandek tuyulsa, yangiliklar tasmaida paydo bo'ladigan qalqib chiquvchi oyna kabi funksiyalarni yaratgan.

Onlayn kontent va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, shuningdek, ular taqdim etayotgan kontent yoki xizmatlarni tavsiflashi va mo'ljallangan yosh oralig'ini keltirib o'tishlari mumkin. Ushbu tavsiflar avvaldan mavjud milliy va xalqaro standartlar, tegishli qoidalar va tasniflash organlari tomonidan taqdim etilgan bolalar uchun marketing va reklama bo'yicha tavsiyalar bilan mos kelishi kerak. Biroq, foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni, masalan, xabarlar taxtasi, chat xonalari va ijtimoiy tarmoq xizmatlari orqali nashr etish imkonini beruvchi interaktiv xizmatlarning ko'payishi bilan bu jarayon yanada qiyinlashadi. Kompaniyalar

²⁴ eSafety Commissioner, [Safety by Design Overview](#), 2019.

ayniqsa bolalar va yoshlarga mo'ljallangan va xizmatlar asosan yosh auditoriyaga qaratilgan bo'lsa, **foydalanuvchilarga do'stona, tushunarli va foydalanish mumkin bo'lgan kontent** va xavfsizlik shartlariga talab yuqori bo'ladi.

Shuningdek, bolalar va yoshlarga tegishli ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlashda kompaniyalar maxfiylikning eng yuqori standartlarini qo'llashga tavsiya etiladi, chunki bolalar va yoshlar o'z ma'lumotlarini oshkor qilish, shaxsiy ma'lumotlarini onlayn ravishda bo'lishish, shaxsiy ma'lumotlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish yoki ularga rozilik berishning kengroq ijtimoiy va shaxsiy oqibatlarini tushuna olmasliklari mumkin. Bolalar va yoshlarga yo'naltirilgan yoki jalb etilishi mumkin bo'lgan xizmatlar shaxsiy ma'lumotlarga (jumladan, joylashuv ma'lumotlariga) kirish yoki ularni to'plash va ulardan foydalanish bilan bog'liq xavflarni hisobga olishi va ushbu xavflarning to'g'ri hal etilishini ta'minlashi va bunday xavflar to'g'risida foydalanuvchilar xabardor qilinishi lozim. Xususan, kompaniyalar xizmatlarni targ'ib qilish, xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash yoki shaxsiy ma'lumotlarga kirish, yig'ish va ulardan foydalanish uchun ishlatiladigan har qanday materiallar yoki aloqaning tili va uslubini ta'minlashi, tushunishga yordam berishi va foydalanuvchilarga shaxsiy hayotini aniq va sodda tarzda boshqarishda yordam berish yo'llari va ular qanday shartlarga rozi bo'layotganlarini aniq tushuntirishlari kerak.

Ilg'or tajriba: innovatsiya

2018-2019-yillarda UNICEF ning Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqaviy boshqarmasi CSEAni onlayn hal qilish uchun istiqbolli tarmoq tajribalarini almashish uchun beshta ko'p manfaatdor tomonlar davra suhbatlarini tashkil etdi. Davra suhbatlarida Google, Facebook, Microsoft, Telenor, Ericsson, MobiCom (Mo'g'uliston), Mobifone+ (Vetnam), Globe Telecom (Filippin), True (Tailand), GSM assotsiatsiyasi kabi yetakchi xususiy sektor kompaniyalari va INHOPE, ECPAT International va Xalqaro bolalar yordam yo'nalishi kabi fuqarolik jamiyati hamkorlari ishtirok etishdi.

Xuddi shu loyiha doirasida 2020-yil fevral oyida UNICEF onlayn dunyoda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish uchun Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida tarmoq yetakchiligini tezlashtirish maqsadida Fikrlash markazi (Think Tank)ni ishga tushirdi. Think Tank g'oyalari va innovatsiyalar inkubatori bo'lib, u ta'sirli o'quv materiallarini ishlab chiqish va eng samarali yetkazib berish platformalarini aniqlash, bolalarga qaratilgan ushbu o'quv materiallari va xabarlarning ta'sirini o'lchashi mumkin bo'lgan baholash tizimi, shuningdek, ishlab chiqish uchun tarmoq subyektlarining (mahsulot yaratish, marketing va boshqalar) noyob istiqboliga tayanadi. Think Tank Facebook, Telenor, akademik mutaxassislar, BMT ning XTI, UNESCO va UNODC kabi agentliklaridan va Avstraliyaning elektron xavfsizlik komissari, ECPAT International, ICMEC, INTERPOL va Bolalarga qarshi zo'ravonlikni tugatish global fondi kabi boshqa tashkilotlardan iborat. Bolalarni onlayn muhitda himoya qilish bo'yicha ASEAN mintaqaviy konferentsiyasiga parallel ravishda o'tkazilgan Think Tank ning ilk yig'ilishi onlayn xavfsizlik materiallari va xabarlarini qabul qilish asosida onlayn xatti-harakatlardagi o'zgarishlarni yaxshiroq kuzatish uchun texnologiya va tadqiqot imkoniyatlarini o'rganish uchun mutaxassislarni, shu jumladan Microsoftni birlashtirdi.

3.4 Bolalarni, vasiylarni va o'qituvchilarni AKTdan xavfsiz va mas'uliyatli foydalanishga o'qitish

Texnik chora-tadbirlar bolalar va yoshlarning onlayn xavflardan himoyalanihini ta'minlashning muhim qismi bo'lishi mumkin, ammo bu muammoning faqat bitta elementidir. **Ota-onalar nazorat vositalari, xabardorlikni oshirish** va ta'lim ham barcha yoshdagi bolalar va yoshlarni, shuningdek, ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilarni imkoniyatlarini oshirishga va xabardor qilishga yordam beradigan asosiy komponentlardir. Kompaniyalar bolalar va yoshlarni AKTdan mas'uliyatli va xavfsiz foydalanishga undasa-da, bu mas'uliyat ota-onalar, maktablar, bolalar va yoshlar o'rtasida o'zaro taqsimlanadi.

Ko'pgina kompaniyalar foydalanuvchilarga kontent va xizmatlar haqida ongli qaror qabul qilishlari uchun mo'ljallangan ta'lim dasturlariga sarmoya kiritmoqdalar. Kompaniyalar ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilarga bolalar va yoshlarni xavfsiz, mas'uliyatliroq hamda maqbul xatti-harakatlarni onlayn va mobil telefon tajribasiga yo'naltirishda yordam bermoqdalar. Bunga yoshga bog'liq bo'lgan kontentni joylashtirish va kontent narxlari, obuna shartlari va obunalarni qanday bekor qilish kabi ma'lumotlarning aniq yetkazilishini ta'minlash kiradi. Yoshni tekshirish mumkin bo'lgan barcha mamlakatlarda ijtimoiy tarmoqlar tomonidan eng kam yosh talabiga rioya qilishni targ'ib qilish, shuningdek, bolalarga tegishli yoshda xizmatlardan foydalanish imkonini berish orqali ularni himoya qilishga yordam beradi. Ushbu tavsiyalar bilan bir qatorda qo'llanilishi kerak bo'lgan muhim masala bu shaxsiy ma'lumotlarni qo'shimcha to'plash hamda bu ma'lumotlarni to'plash va saqlashni cheklash, qayta ishlash zaruratining yuzaga kelishidir.

Shuningdek, bolalar va yoshlarga AKTdan xavfsiz foydalanish, ijobiy va mas'uliyatli xatti-harakat haqida bevosita ma'lumot berish muhimdir. Xavfsizlik haqida xabardorlikni oshirishdan tashqari, kompaniyalar bolalar va yoshlar uchun AKTdan foydalanish va do'stlarga g'amxo'rlik qilishda hurmat, mehr va keng dunyoqarash bilan kontentni ishlab chiqish orqali ijobiy tajribalarni osonlashtirishi mumkin. Ular onlayn bezorilik yoki gruming kabi salbiy holatlarga duch kelganlarida ular haqida ma'lumot berishlari mumkin, bu esa bunday hodisalar haqida xabar berishni osonlashtiradi va anonim xabarlarini ham qabul qilish funksiyasini ta'minlaydi.

Ota-onalar ba'zan bolalar va yoshlarga qaraganda Internet va mobil qurilmalar haqida kamroq tushuncha va bilimga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, mobil qurilmalar va Internet xizmatlarining konvergensiyasi ota-onalar nazoratini yanada qiyinlashtiradi. Tarmoq ota-onalarning farzandlarining raqamli barqarorligini oshirishda va mas'uliyatli raqamli fuqarolar sifatida harakat qilishlarida qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kuchaytirish uchun hukumat va ta'lim tizimi o'zaro hamkorlikda ishlashi mumkin. Maqsad bolalar va yoshlarning AKTdan foydalanishi uchun mas'uliyatni faqat ota-onalarga topshirish emas, balki ota-onalar o'z farzandlari uchun nima to'g'ri ekanligini hal qilishda, bolalarini yaxshiroq himoya qilish va ularga chora ko'rish imkoniyatini berish uchun qulay imkoniyatlarga ega ekanligini va ular barcha xavflardan xabardor bo'lishlari kerakligini tan olishdir.

Ba'zi ota-onalar Internet xizmatlaridan foydalanmasligini hisobga olgan holda, ma'lumotlar bir nechta media kanallari orqali onlayn va oflayn rejimda uzatilishi mumkin. Bolalar va yoshlar uchun onlayn xavfsizlik va AKTdan mas'uliyatli foydalanish bo'yicha o'quv dasturlarini hamda ota-onalar uchun o'quv materiallarini taqdim etishda maktab bo'limlari bilan hamkorlik qilish muhimdir. Masalan, xizmatlar turlari va monitoring faoliyati uchun mavjud variantlarni tushuntirish, agar bola onlayn bezorilik yoki grumingga uchrasa, qanday choralar ko'rish, spamdan qanday qochish, maxfiylik sozlamalarini boshqarish hamda turli yoshdagi o'g'il va qizlar bilan nozik muammolar haqida qanday gaplashishni o'z ichiga oladi. Muloqot ikki tomonlama jarayon bo'lib, ko'plab kompaniyalar mijozlarga muammolar haqida xabar berish yoki tashvishlarni muhokama qilish uchun ular bilan bog'lanish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Kontent va xizmatlar tobora boyib borar ekan, barcha foydalanuvchilar muayyan xizmatning tavsifi va undan qanday xavfsiz foydalanish haqida maslahat va eslatmalardan foydalanishda davom etadilar. Bolalarga Internetdan mas'uliyat bilan foydalanishni o'rgatish muhim bo'lsa-da, bilamizki, bolalar tajriba qilishni, tavakkal qilishni yaxshi ko'radilar, tabiatan qiziquvchan va har doim ham eng yaxshi qarorlarni qabul qila olmaydilar. Ularga o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga yo'l berish zarba juda qattiq bo'lmagan holatda bolalarning o'sishiga hissa qo'shadi, mustaqillik va chidamlilikni rivojlantirishga yordam berishning sog'lom usuli hisoblanadi. Bolalarga onlayn muhitda ba'zan tavakkal qilishlariga ruxsat berilishi kerak bo'lsa-da, ota-onalar va kompaniyalar noto'g'ri bo'lgan holatlarda ularni qo'llab-quvvatlashlari juda muhimdir, chunki bu muvaffaqiyatsiz tajribaning salbiy ta'sirini bartaraf etish va uni kelajakdagi foydali saboqqa aylantirishi mumkin.

Ilg'or tajriba: ta'lim

Yaponiyaning NHK telekanali Twitterda yoshlar uchun o'z joniga qasd qilishning oldini olish kampaniyasini olib boradi: Yaponiyada o'smirlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlari yozgi ta'tildan keyin maktabga qaytganlarida eng yuqori cho'qqisiga yetadi. Bunday ko'rsatkichning asosiy sababi haqiqatga qaytish deb hisoblaniladi. NHK Heart Net TV (NHK Yaponiya) ishlab chiqarish guruhi "#31-avgustga o'tar kechasi" nomli multimedia dasturini yaratishgan. Televideniya, jonli efir va ijtimoiy mediani bog'lab, NHK o'smirlar o'z his-tuyg'ularini qo'rqmasdan bo'lishishlari mumkin bo'lgan "joy"ni muvaffaqiyatli yaratdi.

Twitter ham media savodxonligi bo'yicha ta'lim beruvchi o'qituvchilar uchun rahbariy ko'rsatmalarni nashr etgan. YUNESKO bilan hamkorlikda tayyorlangan rahbariy ko'rsatmalar, birinchi navbatda, o'qituvchilarga yosh avlodni media savodxonlik ko'nikmalari bilan qurollantirishga yordam berishga qaratilgan. Twitter xavfsizlik choralarining yana bir jihati axborot jarayonlarini oshkor etmaslik bilan bog'liq. Bu Twitter ommaviy ravishda bo'lishadigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan axborot operatsiyalari arxivi hisoblanadi. Tashabbus butun dunyo bo'ylab ushbu muammo bilan bog'liq kampaniyalarni akademik va jamoatchilik tomonidan anglashni kuchaytirish va Twitter platformasida ushbu maqsadlarni mustaqil bo'lgan uchinchi tomon nazoratini kuchaytirish uchun boshlangan.

Facebook va Yevropa Ittifoqi tomonidan birgalikda moliyalashtiriladi **deSHAME loyihasi** asosida 9-13 yoshli bolalarga alohida e'tibor qaratilib, turli yosh guruhlari uchun resurslarni yaratishga yordam beradi. Loyihaning bir qismi sifatida "Qadam tashla, baralla gapir!" ta'lim, o'qitish va ma'rifatni oshirish bo'yicha qator materiallar hamda ko'p tarmoqli profilaktika va choralar strategiyasi uchun amaliy vositalar bilan ta'minlangan holda ishlab chiqilgan. Loyiha yoshlarning raqamli huquqlarini targ'ib qilish maqsadida ushbu o'quv materiallarini Yevropaning boshqa mamlakatlari va butun dunyo bo'ylab hamkorlariga yuboradi.

Google yoshlar uchun onlayn xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradigan bir qator ta'lim tashabbuslari, resurslari va vositalarini ishlab chiqdi. Ulardan biri **Be Internet Awesome** raqamli fuqarolik bo'yicha kampaniya bo'lib, u ConnectSafely, Family Online Safety Institute va Internet Keep Safe Coalition kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda yaratilgan. Ushbu kompaniya 8-11 yoshli bolalarga mo'ljallangan. Unda yoshlar uchun internetga asoslangan o'yin (Interland) mavjud bo'lib, raqamli xavfsizlik asoslari va o'qituvchilar uchun "raqamli fuqarolik" va "xavfsizlik o'quv dasturi" kabi resurslarni o'rgatadi. Xavfsizlik bo'yicha o'quv dasturi kampaniyaning beshta asosiy yo'nalishi bo'yicha dars rejalarini taklif etadi, ulardan biri kiberbuling hisoblanadi. Bunga qo'shimcha ravishda, Google raqamli fuqarolik va sinfda xavfsizlik bo'yicha faoliyatni integratsiya qilish maqsadida barcha yoshdagi o'quvchilarga ta'lim beruvchi o'qituvchilar uchun onlayn raqamli fuqarolik va xavfsizlik kursini yaratdi. Google shuningdek, yoshlarni onlayn xavfsizlik va raqamli fuqarolik harakatlariga bevosita jalb qilish uchun bir nechta dasturlarni taklif etadi. Global Web Rangers tashabbusi shunday dasturlardan biri bo'lib, yoshlarni onlayn xavfsizlikka o'rgatadi va ularni Internetdan to'g'ri va xavfsiz foydalanish bo'yicha o'z kampaniyalarini ishlab chiqishga undaydi. Shuningdek, yoshlar uchun ixtisoslashtirilgan mamlakat dasturlari mavjud, masalan, Buyuk Britaniyada Google tomonidan ishga tushirilgan Internet fuqarolari va Internet afsonalari dasturlari bunga misol bo'la oladi.

Eurovision Youth News Exchange doirasida Yevropa teleradioeshittirishlar ittifoqi dasturlar, formatlar va yechimlarni onlayn va oflayn rejimda almashish uchun 15 ta Yevropa televideniya birlashtiradi. Bunday dasturlarda so'nggi yillarda markaziy o'rinni raqamli savodxonlikni o'rgatish va bolalarni Internetdagi xavflardan ogohlantirish egallaydi. So'nggi yillardagi eng muvaffaqiyatli tashabbuslar orasida Norvegiyaning NRK jamoat teleradiokompaniyasi bo'yicha Super va Ultra nytt tomonidan ishlab chiqilgan bolalarga mos ijtimoiy media reklamalari va yangiliklar dasturlari bor.

Ilg'or tajriba: strategik hamkorlik

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish jamg'armasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan loyihaning bir qismi sifatida, 2018-yilda **Capital Humano y Social Alternativo** Perudagi eng yirik internet, kabel va telefon xizmatlari provayderi hisoblangan, 14,4 million mijoz, shu jumladan 8 milliondan ortiq Movistar mobil foydalanuvchilarga ega Telefónica bilan hamkorlikni boshladi.

Ushbu samarali hamkorlik doirasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi:

- **Bolalarni onlayn himoya qilish bo'yicha virtual kurs** Capital Humano y Social Alternativo texnik ko'magida Telefónica tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu kurs endilikda Telefónica veb-saytida mavjud va kompaniya kursni muvaffaqiyatli tamomlagan hamda ro'yxatdan o'tgan odamlar sonini kuzatib boradi. Peru Ta'lim vazirligi ushbu virtual kursning havolasini o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtirishga rozi bo'lgan.
- **Internet xavfsizligi bo'yicha buklet** Capital Humano y Social Alternativo tomonidan yaratilgan va Telefónica orqali 300 dan ortiq mobil savdo markazlarida tarqatilgan. Bunday bukletlardan maqsad Telefónica mijozlari o'rtasida onlayn xavfsizlik va onlayn CSEA bilan bog'liq xavflar haqida xabardorlikni oshirishdir.
- **Onlayn CSEA bo'yicha interaktiv o'yin** Telefónica tomonidan Capital Humano y Social Alternativo texnik ko'magida ishlab chiqilgan bo'lib, Telefónica do'konlarida navbat kutayotgan mijozlarning o'ynab vaqt o'tkazishlari uchun mo'jallangan.

Telefónica bilan muvaffaqiyatga erishgandan so'ng, Capital Humano y Social Alternativo Perudagi chekka va kam ta'minlangan hududlarda ishlaydigan Internet va kabel xizmatlari provayderi Econocable bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

3.5 Raqamli texnologiyani fuqarolik faolligini oshirish usuli sifatida targ'ib qilish

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 13-moddasida "Bola o'z fikrini erkin ifodalash huquqiga ega; bu huquq davlat chegaralaridan qat'iy nazar og'zaki, yozma yoki bosma shaklda, badiiy asar shaklida yoki bolaning xohishiga ko'ra har qanday boshqa vositalar orqali barcha turdagi axborot va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi". Kompaniyalar bolalar va yoshlarning fuqarolik va siyosiy huquqlarini hurmat qilish bo'yicha o'z burchlarini texnologiyani ta'minlash orqali bajarishlari mumkin, shuningdek, bolalar va yoshlarni onlayn zararlardan himoya qilish uchun ishlab chiqilgan qonunchilik va siyosatlarini qo'llash ularning o'zlarini ifoda etish huquqini bostirish yoki ularning farovonligi uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarga kirishiga to'sqinlik qilish kabi kutilmagan oqibatlariga olib kelmasligini ta'minlashi mumkin. Yoshni tekshirish tizimlari muayyan yosh guruhlariga ularning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan kontentga kirishga cheklov qo'yib, tabiiy ehtiyojni xavf ostiga qo'ymasligini ta'minlash juda muhimdir.

Shu bilan birga, tadbirkorlik va tarmoq korxonalari ham yoshlar ishtirokini yengillashtirish mexanizmlari va vositalarini taqdim etish orqali bolalar va yoshlar huquqlarini ta'minlashlari mumkin. Ular, masalan, ijtimoiy va ekologik kampaniyalarda qatnashish va mas'ul shaxslarni javobgarlikka tortish orqali, fuqarolik hayotida kengroq va ijobiy ishtirok etish, ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirish hamda jamiyatlarning barqarorligi va mustahkamligiga ta'sir qilish uchun Internetning imkoniyatlarini shu yo'nalishga qaratishlari mumkin. To'g'ri vositalar va ma'lumotlarga ega bo'lgan bolalar va yoshlar sog'liqni saqlash, ta'lim va ish bilan ta'minlash imkoniyatlaridan foydalanish, maktablar, jamoalar va mamlakatlarda o'z fikrlari va ehtiyojlarini bildirishlari uchun yaxshiroq imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Ular o'z huquqlariga oid ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'ladilar va ularga shaxsan ta'sir qiladigan masalalar, masalan, siyosiy va hukumat javobgarligi, jinsiy salomatligi haqida ma'lumot olish huquqiga ega bo'ladilar.

Kompaniyalar, shuningdek, bolalar, yoshlar va oilalar uchun mos keladigan onlayn tajribalarni yaratishga sarmoya kiritishlari mumkin. Ular bolalar va yoshlarni o'rganish, innovatsiyalar va

yechimlar yaratishga undaydigan, ularga ko'maklashuvchi texnologiya va kontentni rivojlantirishni ta'minlashi mumkin. Ularning mahsulotlarida har doim dizayn bo'yicha xavfsizlik hisobga olinishi lozim.

Bundan tashqari, kompaniyalar raqamli tafovutni yo'qotish ustida ish olib borish orqali bolalar va yoshlar huquqlarini faol ravishda qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Bolalar va yoshlarning ishtiroki raqamli savodxonlikni - raqamli dunyoni anglash va o'zaro aloqada bo'lish imkoniyatini talab qiladi. Ushbu imkoniyatsiz fuqarolar raqamlashtirilgan ko'plab ijtimoiy funksiyalarda ishtirok eta olmaydi, jumladan, soliqlar to'lash, siyosiy nomzodlarga ovoz berish, onlayn petitsiyalarni imzolash, tug'ilishni ro'yxatga olish yoki oddiygina tijorat, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki madaniyat ma'lumotlarini olishdan mahrum bo'ladilar. Kerakli choralar ko'rilmasa, ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'lgan va Internetga kirish yoki raqamli savodxonligi yo'qligi sababli kirish imkoniga ega bo'lmagan fuqarolar o'rtasidagi tafovut yanada ortib, ikkinchi guruhdagilar sezilarli darajada noqulay ahvolda qoladilar. Kompaniyalar bolalar va yoshlarning o'ziga ishonchini oshirish, doim aloqada bo'lish va faol fuqarolik jihatlarini shakllantirish maqsadida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish uchun multimedia tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi mumkin.²⁵ So'nggi yillarda ko'pgina mamlakatlarda raqamli va media savodxonligini oshirish hamda raqamli tafovutni yo'qotishga qaratilgan harakatlar so'nggi yillarda ommaviy axborot vositalarining maqsadining bir qismi bo'lib kelgan. Misol uchun, Italiya parlamenti milliy teleradiokompaniyaning ustuvor yo'nalishlari qatoriga raqamli tafovutni yo'qotish va bolalarni ham oflayn, ham onlayn himoya qilishni ta'minlashni taklif qildi, bunday amaliyotni boshqa mamlakatlar ham tadbiq qilishlari mumkin.

Ilg'or tajriba: ko'p idorali hamkorlik

Yaqinda Microsoft **Power of ZERO** global kampaniyasiga qo'shildi, yosh bolalar va ularga g'amxo'rlik qilayotgan kattalarga yordam berishni maqsad qilgan "No Bully" tashkiloti boshchiligida raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanishni o'rganadi va raqamli fuqarolikning asosi bo'lgan o'z fikrini ifodalash, hamdardlik bildirish va imkoniyati cheklangan odamlarning imkoniyat va resurslardan teng foydalanish siyosatini rivojlantiradi. Erta yoshdan bolalarda mustahkam poydevor hosil qilish uchun tashabbus kichik yoshdagi bolalar tarbiyachilariga (kampaniya 8 yosh va undan kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan) va oilalarga "yaxshilik uchun 12 kuch"ni (Power of Zero 12 hayotiy ko'nikmalar yoki "qobiliyatlar", bolalar uchun barqarorlik, hurmat, imkoniyati cheklanganlarning resurslardan teng foydalanish imkoniyati hamda ijodkorlikni o'z ichiga olgan onlayn va oflayn dunyoda muvaffaqiyatli harakat qilish ko'nikmalarini beradi) bolalarda shakllantirish uchun bepul o'quv materiallarini taqdim etadilar.

²⁵ Mobil hamjamiyatiga yoshlar ishtirokiga misollar uchun [bu yerga](#) qarang.

4 Tarmoq uchun umumiy rahbariy ko'rsatmalar

1-jadvalda mahsulotlar va xizmatlarning bolalar va yoshlar huquqlariga har qanday salbiy ta'sirini aniqlash, oldini olish va yengillatish hamda bolalar va yoshlarning AKTdan ijobiy foydalanishini rag'batlantirish bo'yicha tarmoq uchun rahbariy ko'rsatmalar keltirilgan.

Shuni esda tutingki, 1-jadvalda keltirilgan bosqichlar hamma kompaniyalar va xizmatlar uchun mos kelmaydi hamda ushbu jadvalda alohida xizmat bo'yicha to'liq kerakli bosqichlar mavjud emas. Tarmoq bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar xususiyatiga oid nazorat ro'yxatlari bilan to'ldiriladi (5-bo'limga qarang) va aksincha. 2–5-jadvallardagi xususiyatiga oid nazorat ro'yxatlari alohida xizmatlar uchun eng mos bo'lgan qo'shimcha bosqichlarni ifodalaydi. Xususiyatlarga oid nazorat ro'yxatlari bir-biriga bog'liq bo'lishi va bir xil xizmat uchun bir nechta nazorat ro'yxati tegishli bo'lishi mumkinligini inobatga olish kerak.

1-jadval: Tarmoq uchun umumiy rahbariy ko'rsatmalar

<p>Bola huquqlari tushunchasini barcha tegishli korporativ siyosat va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish</p>	<p>Tarmoq AKTning bolalar va yoshlar huquqlariga salbiy ta'sirini aniqlashi, oldini olishi va yengillatishi, shuningdek, quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali bolalar va yoshlar huquqlarini rivojlantirishni ta'minlash imkoniyatlarini aniqlashi mumkin:</p>
	<p>Ushbu jarayon uchun zarur ichki va tashqi manfaatdor tomonlarga kirish imkoniyatiga ega muayyan shaxsni va/yoki jamoani mas'ul etib tayinlash. Ushbu shaxsga va/yoki jamoaga bolalarni onlayn himoya qilish bo'yicha kompaniya doirasida himoya profilini oshirishga ruxsat berish.</p>
	<p>Bolalarni himoya qilish va himoya qilish siyosatini ishlab chiqish hamda bolalar va yoshlar huquqlariga taalluqli maxsus xavf va imkoniyatlarni kompaniya miqyosidagi siyosat majburiyatlariga (masalan, inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik, marketing va tegishli xulq-atvor kodekslari) kiritish.</p>
	<p>Tadbirkorlik yoki tarmoq o'z faoliyati orqali salbiy ta'sirlarni keltirib chiqarishi, ularga hissa qo'shishi yoki salbiy ta'sirlar bevosita uning faoliyati, mahsulotlari yoki xizmatlari yoki tadbirkorlik aloqalari bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini aniqlash uchun COP masalalari bo'yicha tegishli tekshiruvni mavjud inson huquqlari yoki xavflarni baholash tizimlariga (korporativ, ishlab chiqarish, texnologiya va/yoki mamlakat darajasida) integratsiya qilish.</p>
	<p>Kompaniya faoliyati, mahsulot va xizmatlarni loyihalash, ishlab chiqish va joriy etish natijasida turli yosh guruhlaridagi bolalarning huquqlariga ta'sirini, shuningdek, bolalar va yoshlar huquqlarini ta'minlash imkoniyatlarini aniqlash.</p>
	<p>Bolalarni himoya qilish uchun imkoniyatlarni kengaytirish va ta'limga asoslangan yondashuvni qabul qilish. Kompaniya xizmatlari orqali ta'lim berish va ko'rsatmalar berishda bolalarning ma'lumotlarini himoya qilish huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi va so'z erkinligi huquqlarini hisobga olish.</p> <p>Kompaniyaning yondashuvlari bo'yicha doimiy fikr-mulohaza va ko'rsatmalar olish uchun ichki va tashqi mutaxassislardan foydalanish va asosiy manfaatdor tomonlar, jumladan, bolalar va yoshlar bilan bolalarning onlayn xavfsizligi mexanizmlari bo'yicha maslahatlashib turish.</p>
	<p>Bolalar va yoshlarning maxfiylik va so'z erkinligiga bo'lgan huquqlarini himoya qilish uchun tegishli huquqiy bazaga ega bo'lmagan davlatlarda kompaniyalar siyosat va amaliyotlarning xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlashi kerak. BMT ning Bosh Assambleyaning 68/167-sonli rezolyutsiyasida raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqi haqida ma'lumot berib o'tilgan.</p>
	<p>Har qanday bola huquqlari buzilishi (masalan, CSAM, nomaqbul kontent, aloqa yoki shaxsiy hayotga aralashuv) hodisalarida operativ darajada shikoyat qilish va hisobot berish mexanizmlarini yaratish orqali himoya vositalaridan foydalanishni ta'minlash.</p>

<p>Bola huquqlari tushunchasini barcha tegishli korporativ siyosat va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish (davomi)</p>	<p>COP muammolari bo'yicha bog'lanish uchun bolalarni himoya qilish siyosati menejerini yoki boshqa mas'ul shaxsni tayinlash. Agar bola zarar ko'rish xavfi ostida bo'lsa, bolani himoya qilish siyosati menejeri darhol tegishli organlarni xabardor qilishi kerak.</p> <p>Misol uchun, BBC tahririy rahbariy ko'rsatmalarida (2019) bolalarni himoya qilish siyosati bo'yicha menejerni tayinlash davlat media sektorida majburiy ekanligi ta'kidlangan.</p>
<p>Bolalarni onlayn himoya qilish uchun tarmoq standartlarini ishlab chiqish</p>	<p>Muayyan soha va xususiyatlarni hisobga olgan holda bolalar va yoshlarni himoya qilish uchun kompaniya va tarmoq standartlarini yaratish va joriy etish.</p>
<p>CSAM uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish</p>	<p>Hukumat, huquqni muhofaza qilish organlari, fuqarolik jamiyati va ishonch telefoni tashkilotlari bilan hamkorlikda tarmoq quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali CSAMga qarshi kurashda muhim rol o'ynashi kerak:</p> <p>Har qanday tomonning huquqlarini buzadigan yoki har qanday mahalliy, shtat, milliy yoki xalqaro qonunlarni buzadigan kontentni yuklash, joylashtirish, yuborish, almashish yoki kirish imkoniyatini yaratishni taqiqlash.</p> <p>Provayderlarga CSAM xabari kelishi bilan darhol ularni yetkazish uchun milliy huquqni muhofaza qilish idoralari yoki milliy ishonch telefon(lar)i bilan bog'lanish. Mahalliy va xalqaro qonunlar bo'yicha hisobot berish majburiyatlariga rioya qilish uchun ichki tartib-qoidalar mavjudligini ta'minlash.</p> <p>Agar kompaniya ushbu masala bo'yicha tartibga solish va huquqni muhofaza qilish organlari nazorati kam rivojlangan bozorlarda ishlayotgan bo'lsa, u hisobot berishni xohlovchilarga murojaat qilishi uchun Internet ishonch telefoni xalqaro assotsiatsiyasiga (INHOPE) yuboradi. Bu yerda hisobotlarni istalgan xalqaro ishonch telefoniga topshirishlari mumkin.</p> <p>CSAMga qarshi kurash bo'yicha mahalliy va xalqaro qonunlarga rioya qilishni ta'minlash uchun ichki tartiblarni o'rnatish.</p> <p>Ushbu tartiblarni tashkilotga integratsiya qilishga mas'ul yuqori lavozim tayinlash yoki jamoani yaratish. Keyin tarmoq a'zolari o'zlarining yillik korporativ va barqarorlik hisobotida ushbu jamoa tomonidan amalga oshirilgan harakatlar va erishilgan natijalar haqida hisobot berishlari kerak.</p> <p>Milliy qoidalar yetarli darajada himoyani ta'minlamasa, kompaniyalar milliy qonunchilikni hurmat qilishlari, lekin undan oshib ketishlari va tarmoqqa CSAMga qarshi kurashish imkonini beradigan qonunchilikdagi o'zgarishlarni ilgari surish uchun o'z vositalaridan foydalanishlari kerak.</p> <p>Tashkilot ichida ushbu tartib-qoidalarni birlashtirish va jarayonlarni monitoring qilish uchun mas'ul lavozim yoki jamoa yaratilishi kerak. Bajarilgan ishlar yillik korporativ va barqaror rivojlanish hisobotlarida shaffof tarzda aks ettirilishi va jamoatchilikka taqdim etilishi kerak.</p> <p>Noqonuniy kontent haqida xabar berilgan yoki aniqlangan taqdirda tadbirkorlik huquqini muhofaza qilish organlari bilan to'liq hamkorlik qilishini belgilash va jarima yoki hisob-kitob imtiyozlarini bekor qilish kabi jazolarga oid tafsilotlarni qayd etish.</p> <p>CSAMni saqlash yoki almashish uchun o'z xizmatlaridan noto'g'ri foydalanish va har qanday suiiste'molning oqibatlarini bo'yicha kompaniyaning pozitsiyasini aniq ifodalash uchun mijozning holati va shartlari va/yoki maqbul foydalanish siyosatlaridan foydalanish.</p>

CSAM uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish (davomi)	<p>Foydalanuvchilarga CSAM yoki nomaqbul kontakt va aniqlangan profil/joy haqida xabar berishga imkon beruvchi xabar berish, o'chirib tashlash va hisobot berish jarayonlarini ishlab chiqish.</p> <p>Hisobotni kuzatish jarayonlarini o'rnatish, dalillarni qo'lga kiritish tartib-qoidalarini kelishib olish va CSAMga kirishni darhol yopish yoki bloklash.</p> <p>Zarur bo'lganda, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar noqonuniy kontentni yo'q qilishdan oldin mutaxassislar (masalan, COP milliy organlari) fikrini so'rashiga ishonch hosil qilish.</p> <p>Kompaniya bilan shartnomaviy munosabatlarga ega bo'lgan tegishli uchinchi shaxslar ham xuddi shunday ishonchli ogohlantirishga ega bo'lishini va jarayonlarni bekor qilishini ta'minlash.</p>
	<p>CSAM bilan shug'ullanish va tegishli organlarga holatlar haqida xabar berishga tayyor bo'lish. Agar huquqni muhofaza qilish organlari va milliy ishonch telefoni bilan aloqa hali o'rnatilmagan bo'lsa, jarayonlarni birgalikda ishlab chiqish uchun ular bilan hamkorlik qilish.</p>
	<p>Mijozlarga xizmat ko'rsatish, firibgarlikning oldini olish va xavfsizlik kabi ichki funksiyalar bilan ish olib borish, bu tadbirkorlik noqonuniy kontent haqida gumon qilingan xabarlarini bevosita huquq-tartibot idoralari va ishonch telefonlariga yuborilishini ta'minlash. Ideal holda, bu xodimlarni zararli tarkibga ta'sir qilmaslik yoki ta'sirlangan bola/bolalar va yoshlarni qayta zararlanslik uchun amalga oshirilishi kerak. Xodimlar haqoratli materiallarga duch kelishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni hal qilish uchun xodimlarning chidamliligi, xavfsizligi va farovonligini ta'minlash bo'yicha siyosat yoki dasturni amalga oshirish.</p>
	<p>Dalillarni yig'ish kabi harakatlar orqali jinoiy tergov o'tkazilganda huquqni muhofaza qilish organlarini qo'llab-quvvatlash uchun ma'lumotlarni saqlash va asrash siyosatini kiritish. CSAM bilan ishlash bo'yicha monitoringdan boshlab, kontentni yakuniy uzatish va yo'q qilishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga olgan kompaniya amaliyotlarini hujjatlashtirish. Hujjatlarga material bilan ishlash uchun mas'ul bo'lgan barcha xodimlar ro'yxatini kiritish.</p>
	<p>CSAM uchun hisobot berish mexanizmlarini targ'ib qilish, va natijada, mijozlar bunday kontentni topsalar, hisobotni qanday topshirishni bilishlariga ishonch hosil qilish. Agar milliy ishonch telefoni mavjud bo'lsa, korporativ veb-saytdan va kompaniya tomonidan ilgari surilgan har qanday tegishli kontent xizmatlaridan ishonch telefoniga havolalarni taklif qilish.</p>
	<p>Ularning xizmatlari yoki platformalarida bolalarning jinsiy zo'ravonligi haqidagi kontent tarqalishining oldini olish uchun barcha tegishli xizmatlar/ma'lumotlar to'plamini olish.</p>
	<p>Doimiy ravishda kompaniya serverlarida joylashgan barcha kontentni, jumladan, tijorat (brend yoki uchinchi tomon kontent provayderlari bilan shartnoma tuzilgan) kontentini faol baholab borish. CSAM bilan ishlash uchun bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik tasvirlarini xesh skanerlash, tasvirni aniqlash dasturi yoki URLni bloklash kabi vositalardan foydalanishni ko'rib chiqish.</p>

Xavfsiz va yoshga mos keladigan onlayn muhitni yaratish	<p>Tarmoq quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali barcha yoshdagi bolalar va yoshlar uchun xavfsiz, qiziqarliroq raqamli muhitni yaratishga yordam beradi:</p>
	<p>Kompaniyadagi texnologiyalar, xizmatlarga dizayn bo'yicha xavfsizlik va maxfiylik printsiplarni joriy etish bolalarga taalluqli ma'lumotlar hajmini minimal darajaga kamaytiradigan yechimlarga ustuvor ahamiyat beradi.</p>
	<p>Taklif etilayotgan xizmatlarda yoshga mos dizaynlarni yaratish. Bolalarga sayt qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarni qulay va yoshga mos ravishda kerakli miqdordagi tafsilotlarni bilan taqdim etish.</p> <p>Yoshga mos keladigan va foydalanish shartlari va shartlarga qo'shimcha ravishda, tarmoq qoidalari va asosiy siyosati kabi ma'lumotlarni xuddi shunday va aniq yetkazish kerak. Bu xizmatdagi maqbul va nomaqbul xatti-harakatlarni, har qanday qoidalarni buzish oqibatlarini, xizmatning o'ziga xos xususiyatlarini va foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish orqali nimaga roziligini ta'kidlashi kerak. Bunday ma'lumotlar, ayniqsa, yosh foydalanuvchilar va ularning ota-onalari va vasiylari uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.</p>
	<p>Foydalanuvchilarning e'tiborini kompaniyaning onlayn xizmatlaridagi barcha yoshdagilar uchun mos kelmasligi mumkin bo'lgan kontentga jalb qilish uchun xizmat ko'rsatish shartlari yoki diqqatni jalb qilish shartlaridan foydalanish. Shartlar bunday qoidalarning buzilishi haqida xabar berish va ularga qarshi kurashishning aniq mexanizmlarini o'z ichiga olishi kerak.</p>
	<p>Ota-ona nazorati dasturlari va ota-onalar, vasiylarga farzandlarining internet resurslariga kirishini boshqarish imkonini beruvchi mexanizmlar hamda boshqa vositalar bilan ta'minlashni ko'rib chiqish, shu bilan birga bolalar huquqlari buzilmasligi uchun ulardan to'g'ri foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish. Bularga bloklash/ruxsat berish ro'yxatlari, kontent filtrlari, foydalanish monitoringi, kontaktlarni boshqarish va vaqt/dastur cheklovlari kiradi.</p>
	<p>Ota-onalar va vasiylarga bolalarning elektron qurilmalardan foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim xizmatlar va kontentni cheklash imkonini beruvchi ota-ona nazorati imkoniyatlarini taklif etish. Ushbu cheklovlar tarmoq va qurilma darajasidagi boshqaruv elementlarini va ilovalarni boshqarishni o'z ichiga olishi mumkin. Bu bolaning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va onlayn imkoniyatlarini susaytirish qobiliyatiga katta ta'sir ko'rsatishini hisobga olsak, ushbu nazorat juda yosh bolalar uchun ularning rivojlanish kontekstiga muvofiq va ota-onalar uchun tegishli ko'rsatmalar bilan ishlab chiqilishi lozim.</p>
	<p>Iloji bo'lsa, ota-onalar va vasiylar huquqbuzarliklar haqida xabar berish va suiiste'mol yoki ekspluatatsiya holatlarida yordam so'rash uchun foydalanishi mumkin bo'lgan milliy yordam xizmatlarini targ'ib qilish.</p>
	<p>Internetda zararli yoki nomaqbul reklama kontentidan saqlanish va kattalar auditoriyasi uchun mo'ljallangan hamda bolalar va yoshlar uchun zararli bo'lishi mumkin bo'lgan kontent bilan xizmat ko'rsatuvchi provayderlar uchun mijozlarni oshkor qilish majburiyatlarini belgilash. Zararli reklama tarkibida yog', shakar yoki tuz ko'p bo'lgan oziq-ovqat va ichimliklar reklamasi ham bo'lishi mumkin.</p> <p>Tadbirkorlik amaliyotini bolalar va yoshlar uchun marketing va reklama bo'yicha qoidalar va maslahatlar bilan muvofiqlashtirish. Bolalar va yoshlar bozorining boshqa segmenti uchun mo'ljallangan zararli reklama xabarlariga qayerda, qachon va qanday duch kelishlarini kuzatib borish.</p>
<p>Ma'lumot to'plash siyosati bolalar va yoshlarning shaxsiy daxlsizligiga oid tegishli qonunlarga muvofiqligini ta'minlash, shu jumladan, tijorat korxonalarini boladan yoki unga tegishli shaxsiy ma'lumotlarni to'plashdan oldin ota-onaning roziligi zarurligini ko'rib chiqish.</p>	

<p>Xavfsiz va yoshga mos keladigan muhitni yaratish (davomi)</p>	<p>18 yoshgacha bo'lgan shaxslardan to'plangan shaxsiy ma'lumotlarni, shu jumladan, joylashuvga oid ma'lumotlar va ko'rish odatlarini to'plash, qayta ishlash, saqlash, sotish va nashr etish uchun kengaytirilgan standart maxfiylik sozlamalarini moslashtirish va amalga oshirish. Standart maxfiylik sozlamalari va maxfiylik muhimligi haqidagi ma'lumotlar foydalanuvchilarning yoshiga va xizmatning xususiyatiga mos kelishi kerak.</p> <p>Nomaqbul kontent yoki xizmatlarga voyaga yetmagan bolalar va yoshlarning kirishini oldini olish uchun ota-ona nazorati vositalari, dizayn bo'yicha xavfsizlik, yoshga qarab farqlangan tajriba, parol bilan himoyalangan kontent, bloklash/ruxsat berish ro'yxati, xarid/vaqt boshqarish, rad etish funksiyalari, filtrlash va moderatsiya kabi texnik choralarni qo'llash.</p> <p>Foydalanuvchilarning yoshini aniqlaydigan va ularga yoshga mos dastur formatini taqdim etadigan texnologiyani joriy qilish.</p> <p>Yoshga bog'liq kontent yoki xizmatlar uchun tarmoq manfaatdor tomonlari foydalanuvchilarning yoshini tekshirish choralari ko'rishlari kerak. Iloji bo'lsa, qonun yoki siyosat bo'yicha faqat ma'lum bir yoshdan oshgan shaxslar uchun mo'ljallangan kontent yoki materiallarga kirishni cheklash uchun yoshni tekshirishdan foydalanish. Kompaniyalar, shuningdek, bolalar va yoshlarning so'z erkinligi va ma'lumotlardan foydalanish huquqini cheklash yoki ularning shaxsiy hayotiga xavf tug'dirish uchun bunday texnologiyalardan noto'g'ri foydalanish imkoniyatlarini tan olishlari kerak.</p> <p>Barcha yoshdagi foydalanuvchilar uchun mos kelmaydigan kontent va xizmatlar quyidagilardan iboratligiga ishonch hosil qiling:</p> <ul style="list-style-type: none"> • milliy standartlar va madaniy me'yorlarga muvofiq tasniflangan; • ekvivalent ommaviy axborot vositalarida mavjud standartlarga muvofiq; • kirishni boshqarish uchun aniq displey variantlari bilan aniqlangan; • iloji bo'lsa, tekshirish jarayonida olingan shaxsni aniqlash mumkin bo'lgan har qanday ma'lumotlarni o'chirish bilan bog'liq aniq shartlar yoshni tekshirish bilan birga taklif etiladi. <p>Masalan, ommaviy axborot vositalari standartlariga kelsak, barcha ommaviy axborot vositalarini tartibga soluvchi organlar yoshga bog'liq kontentga talablar to'plamini taqdim etadilar hamda Internet-provayderlar omborlarni moslashtirishi va ularning kontent taklifiga ko'rsatmalarni qo'llashlari kerak. Masalan, Buyuk Britaniyadagi Ofcom, Frantsiyadagi CSA va Italiyadagi AGCOM bunga misol bo'la oladi.</p> <p>Aniq hisobot vositalarini taklif qilish va nomaqbul kontent, aloqa va noto'g'ri foydalanish haqidagi hisobotlarni kuzatish jarayonini ishlab chiqish va xizmat foydalanuvchilariga hisobot berish jarayoni bo'yicha batafsil fikr-mulohazalarni taqdim etish.</p> <p>Bolalar va yoshlar uchun mo'ljallangan interfaol maydonlarni bolalarning shaxsiy daxlsizligiga bo'lgan huquqlari va ularning rivojlanayotgan imkoniyatlariga mos keladigan tarzda oldindan moderatsiya qilishni ta'minlash. Faol moderatsiya qo'rqitish va ta'qib qilish bo'lmagan muhitni yaratishi mumkin. Nomaqbul xatti-harakatlar quyidagilar kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • birovning profiliga noxush yoki tahdidli izohlar qo'yish; • qurbonni kamsitish uchun soxta profillar yoki nafratlanadigan saytlarni o'rnatish; • zararli niyat bilan zanjirli xabarlar va ilovalarni yuborish; • boshqalarga haqoratomuz xabarlar yuborish uchun birovning akkauntini buzish. <p>Bolalar va yoshlar bilan ishlaydigan xodimlar yoki hamkasblar bilan alohida ehtiyot bo'lish, ularning sudlanganlik holatini politsiya idoralari tomonidan oldindan tekshirish talab qilinishi mumkin.</p>
---	--

Xavfsiz va yoshga mos keladigan muhitni yaratish (davomi) onlayn	<p>Grumigga shubha qilingan har qanday hodisa haqida tegishli organlarga xabar berish uchun mas'ul bo'lgan onlayn yoki interaktiv boshqaruv guruhiga darhol murojaat qilish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • iloji bo'lsa, ijroiya rahbariyatiga va bolalarni himoya qilish siyosati bo'yicha menejerga gruming to'g'risida hisobot berish; • foydalanuvchilarga gruming hodisalari haqida to'g'ridan-to'g'ri rasmiylarga xabar berish imkoniyatini berish; • ogohlantirish va xabar berish uchun elektron pochta manzillari orqali bevosita aloqa qilish imkoniyatini o'rnatish.
	<p>Bolaning xavfsizligi va farovonligini har doim birinchi o'ringa qo'yish. Har doim professional chegaralardan chiqmasdan harakat qilish va bolalar bilan barcha aloqalar xizmat, dastur, tadbir, faoliyat yoki loyiha uchun muhim ekanligiga ishonch hosil qilish. Hech qachon bola uchun javobgarlikni to'liq o'z zimmangizga olmang. Agar bolaga g'amxo'rlik kerak bo'lsa, ota-onasini, vasiysini yoki rahbarni ogohlantirish. Har doim bolalarni tinglash va hurmat qilish. Agar kimdir bolalar atrofida o'zini nojo'ya tutsa, bolalarni himoya qilish bo'yicha mahalliy mas'ulga xabar berish.</p>
	<p>Ko'zga ko'rinadigan aniq qoidalar to'plamini belgilash va asosiy tushunchalarni xizmat ko'rsatish shartlari va maqbul rahbariy ko'rsatmalarida aks ettirish. Ushbu qoidalarda foydalanuvchilar uchun qulay til quyidagilarni belgilashi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • xizmatning xususiyati va undan foydalanish natijalari; • mazmuni, xulq-atvori va tiliga ko'ra qabul qilinishi mumkin bo'lmagan narsa, shuningdek, noqonuniy foydalanishni taqiqlash; • huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berish yoki foydalanuvchining hisobini to'xtatib turish kabi jarayonlarning oqibatlarini.
	<p>Mijozlarga noto'g'ri foydalanish bilan bog'liq xavotirlar haqida mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga xabar berishni osonlashtirish, bunda keraksiz xabarlarini olish (masalan, spam-SMS) kabi turli tashvishlarni hal qilish uchun standart va qulay jarayonlarni yaratish.</p>
	<p>Shaffof bo'lish va mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning mohiyati haqida aniq ma'lumot berish, masalan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kontent/xizmat turi va xarajatlari; • kirish uchun minimal yosh cheklovi; • ota-ona nazorati vositalarining mavjudligi, shu jumladan, boshqaruv elementlari qamrab oladigan (masalan, tarmoq) yoki qamrab ololmaydigan (masalan, Wi-Fi) va ulardan foydalanish bo'yicha treninglar; • to'plangan foydalanuvchi ma'lumotlari turi va undan qanday foydalaniladi.
	<p>Bolalar va yoshlarga suiiste'mol yoki ekspluatatsiya holatlarida xabar berish va yordam so'rash imkonini beruvchi milliy yordam xizmatlarini rag'batlantirish (misol uchun Xalqaro bolalar yordam liniyasi).</p>

Bolalar, ota-onalar va o'qituvchilarni bolalarning xavfsizligi va AKTdan mas'uliyatli foydalanish bo'yicha o'qitish	<p>Tarmoq quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali texnik chora-tadbirlarni ta'lim va imkoniyatlarni oshirish tadbirlari bilan to'ldirishi mumkin:</p>
	<p>Mavjud kontent va ota-ona nazorati yoki oilaviy xavfsizlik sozlamalarini aniq tasvirlab berish. Til va atamalarni barcha foydalanuvchilar, jumladan, bolalar, ota-onalar va vasiylar uchun ochiq, aniq, tushunarli va dolzarb qilib yaratish, ayniqsa kontent yoki xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar, maxfiylik siyosati, xavfsizlik ma'lumotlari va hisobot berish mexanizmlari bilan bog'liq shartlarni inobatga olish kerak.</p>
	<p>Mijozlarni Internetdan foydalanish bilan bog'liq tashvishlarni, jumladan spam, ma'lumotlarni o'g'irlash va qo'rqitish va gruning kabi noto'g'ri aloqalarni boshqarishni o'rgatish va mijozlar qanday harakatlar qilishi va ular noto'g'ri foydalanish bo'yicha xavotirlarni qanday xabar berishi mumkinligini tasvirlab berish.</p>
	<p>Ota-onalarga bolalar va yoshlarning shaxsiy daxlsizligi sozlamalarini ko'rib chiqish imkoniyatini berish orqali ota-onalarni o'z farzandlari va yoshlarning, xususan, kichik yoshdagi bolalarning AKT sohasidagi faoliyatiga jalb qilish mexanizmlarini o'rnatish va o'rgatish.</p>
	<p>Ota-onalarning farzandlari va yoshlarini qo'llab-quvvatlash va ular bilan mas'uliyatli raqamli fuqarolar va AKT foydalanuvchilari bo'lish to'g'risida suhbat olib borish qobiliyatini rivojlantirish uchun hukumat va o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish.</p>
	<p>Mahalliy sharoitdan kelib chiqib, maktablar va uylarda foydalanish uchun bolalar va yoshlarning AKTdan foydalanishini oshirish hamda AKT xizmatlaridan foydalanishda xavfsiz va mas'uliyatli harakat qilishlari uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'quv materiallarini taqdim etish.</p>
	<p>Ota-onalar va tarbiyachilarni quyidagilarga undaydigan oilaviy onlayn xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalarni tarqatish orqali mijozlarni qo'llab-quvvatlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • bolalar va yoshlar foydalanadigan mahsulotlar va xizmatlar bilan tanishish; • sog'lom va muvozanatli turmush tarzi doirasida bolalar va yoshlarning elektron qurilmalardan me'yorida foydalanishini ta'minlash; • kiberbulling yoki ta'qib ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash uchun bolalar va yoshlarning xatti-harakatlariga jiddiy e'tibor berish.
	<p>Ota-onalarga o'z farzandlari AKT xizmatlaridan qanday foydalanishlarini tushunishlari, zararli kontent va xatti-harakatlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishlari hamda bolalar va yoshlarni mas'uliyatli foydalanishga yo'naltirishlari uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etish. Bunga bolalar uchun onlayn xavfsizlik o'quv dasturlari va ota-onalar uchun o'quv materiallarini taqdim etish maqsadida mavjud vositalardan foydalanish va maktab tumanlari bilan o'zaro aloqalar orqali yordam berish mumkin.</p>
Bolalarni himoya qilish va tarbiyalash uchun texnologiya yutuqlaridan foydalanish	<p>Matnlar, tasvirlar, suhbatlar va kontekstlarni tushunadigan maxfiylikni saqlaydigan SI bir qator onlayn zararlar va tahdidlarni aniqlashi va ularga qarshi kurashishi, bu ma'lumotlardan bolalarni ularga qarshi kurashishga imkon berish va o'rgatish uchun foydalanishi mumkin. Bu aqlli qurilma muhitida amalga oshirilganda, yoshlarni qo'llab-quvvatlagan holda ularning ma'lumotlari va maxfiyligini himoya qilishi mumkin.</p>
	<p>Davlat xizmatlari va milliy ommaviy axborot vositalari ota-onalar va bolalarni o'qitish va ularni onlayn dunyoning xavf-xatarlari va imkoniyatlaridan xabardor qilish uchun (oflayn va onlayn) dasturlar taklifi orqali muhim rol o'ynashi mumkin.</p>

Raqamli texnologiyani fuqarolik faolligini oshirish usuli sifatida ilgari surish	<p>Tarmoq bolalar va yoshlarni ishtirok etish huquqini quyidagi harakatlar orqali qo'llab-quvvatlashi, rag'batlantirishi va kuchaytirishi mumkin:</p>
	<p>Xizmatdan ijodiy maqsadlarda foydalanish kabi bolalarning o'zini yaxshi tutishi va mas'uliyatli bo'lishi orqali erishadigan afzalliklarini ta'kidlash uchun xizmat haqida ma'lumot berish.</p>
	<p>Barcha foydalanuvchilar, jumladan, bolalar va yoshlar uchun so'z erkinligini himoya qiluvchi siyosat va jarayonlarning izchil amalga oshirilishini ta'minlaydigan yozma qoidalarni, shuningdek, ushbu siyosatlarga muvofiqligini hujjatlashtirish.</p>
	<p>Qonuniy va rivojlanishga mos kontentni ortiqcha bloklanishdan saqlanish. Filtrlash so'rovlari va vositalaridan bolalar va yoshlarning ma'lumotlarga kirishini cheklash uchun noto'g'ri foydalanilmasligini ta'minlash, bloklangan kontentning shaffofligini ta'minlash va foydalanuvchilarning bexosdan bloklanganlik haqida xabar berish jarayonini o'rnatish. Ushbu jarayon barcha iste'molchilar, shu jumladan, veb-ustalar uchun ham mavjud bo'lishi kerak. Har qanday hisobot jarayoni aniq, mas'uliyatli va qabul qilingan xizmat shartlarini taqdim etishi kerak.</p>
	<p>Bolalar va yoshlarning o'z fikrlarini bildirish huquqini targ'ib qiluvchi onlayn platformalarni ishlab chiqish; ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlash; ularning hamkorlik, tadbirkorlik va fuqarolik ishtirokini rag'batlantirish.</p>
	<p>Bolalar va yoshlar uchun o'rganish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilishga undaydigan ta'lim kontentini ishlab chiqish.</p>
	<p>Bolalar va yoshlarni, xususan, qishloq va kam ta'minlangan hududlardagilarni AKT resurslaridan foydalanish va raqamli dunyoda to'liq ishtirok etish uchun jihozlash maqsadida raqamli savodxonlikni, salohiyatni oshirish va AKT ko'nikmalarini rivojlantirish.</p>
	<p>Mahalliy fuqarolik jamiyati va hukumat bilan AKT, platformalar va qurilmalar hamda ularni qo'llab-quvvatlash uchun asosiy infratuzilmaga universal va adolatli kirishni kengaytirish bo'yicha milliy va mahalliy ustuvorliklar bo'yicha hamkorlik qilish.</p>
	<p>Mijozlarni, shu jumladan ota-onalarni, vasiylarni, bolalar va yoshlarga taklif etilayotgan xizmatlar haqida xabardor qilish va jalb qilish, masalan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kontent turi va tegishli ota-ona nazorati; • suiiste'mol, noto'g'ri foydalanish va nomaqbul yoki noqonuniy kontent holatlari to'g'risida xabar berish mexanizmlari; • hisobotlarni bajarish tartibi; • yosh chegaralangan xizmatlar turlari; • "o'z brendi" interaktiv xizmatlaridan xavfsiz va mas'uliyatli foydalanish.
	<p>Xavfsiz va mas'uliyatli raqamli fuqarolik, masalan, onlayn obro' va raqamli iz, zararli kontent va gruning kabi kengroq masalalar bilan shug'ullanish. Kompaniya xabarini shakllantirish va mo'ljallangan auditoriyani qamrab olish uchun bolalar nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari va ota-onalar guruhlari kabi mahalliy mutaxassislar bilan hamkorlik qilishni o'ylab ko'rish.</p>
<p>Agar tadbirkorlik allaqachon bolalar yoki maktablar bilan ishlayotgan bo'lsa, masalan, korporativ ijtimoiy mas'uliyat dasturlari orqali, ushbu hamkorlikni bolalar va yoshlar, shuningdek, COP xabarlari bo'yicha o'qituvchilar bilan o'qitish va ular bilan ishlashni o'z ichiga olgan holda kengaytirish imkoniyatini o'rganish.</p>	

Tadqiqotni investitsiyalash	Raqamli texnologiyalarning dalillarga asoslangan tadqiqotlari va chuqur tahliliga, texnologiyalarning bolalarga ta'siriga, raqamli muhitga nisbatan bolalarni himoya qilish va bolalar huquqlariga e'tibor qaratishga, onlayn himoya tizimlarini bolalar va yoshlar tomonidan foydalaniladigan xizmatlarga integratsiyalash va yaxshiroq sarmoya kiritish hamda bolalarning onlayn tajribasini yaxshilashda qaysi turdagi aralashuvlar eng samarali ekanligini tushunish.
------------------------------------	---

AKT kompaniyalari tipologiyasi

Ushbu XTI rahbariy ko'rsatmalari umuman AKT tarmog'iga qaratilgan bo'lsa-da, AKT kompaniyalari taklif etayotgan xizmatlar, ularning faoliyat ko'rsatish usullari, ular faoliyat yuritadigan tartibga solish sxemalari hamda takliflarining hajmi va ko'lami farqlanishini tan olish muhimdir. Mahsulotlari va xizmatlari bevosita yoki bilvosita bolalarga mo'ljallangan har qanday texnologiya kompaniyasi yuqorida aytib o'tilgan umumiy tamoyillardan foydalanishi va o'ziga xos faoliyat sohasi asosida moslashishi mumkin. Asosiy g'oya AKT sohasini qo'llab-quvvatlash va ularga onlayn dunyoda eng yaxshi yo'l bilan harakat qilish imkoniyatini berish bilan birga, bolalarni onlayn zarar xavfidan yaxshiroq himoya qilish uchun to'g'ri chora-tadbirlar ko'rishda yo'nalish berishdan iborat. Quyidagi tipologiya ba'zi maqsadli auditoriyalarni va ularning keyingi bo'limdagi nazorat ro'yxatlariga qanday mos kelishini aniqroq tushunishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bular faqat ba'zi aniq misollar toifalari, xolos:

- a) Internet-provayderlar, shu jumladan statsionar keng polosali ulanish xizmatlari yoki uyali aloqa operatorlarining uyali ma'lumotlar xizmatlari: bu odatda obuna bo'lgan mijozlarga uzoqroq muddatga taqdim etiladigan xizmatlarni aks ettirsa-da, u bepul yoki pullik umumiy Wi-Fi ulanish nuqtalarini taqdim etuvchi korxonalariga ham qo'llanilishi mumkin.
- b) Ijtimoiy tarmoq/xabar almashish platformalari va onlayn o'yin platformalari.
- c) Uskuna va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilari, jumladan, mobil telefonlar, o'yin pristavkalari, ovozli yordamga asoslangan uy qurilmalari, buyumlar interneti va bolalar uchun aqlli internetga ulangan o'yinchoqlar kabi qo'l qurilmalari provayderlari.
- d) Raqamli ommaviy axborot vositalarini ta'minlovchi kompaniyalar (kontent yaratuvchilar, kontentga kirish yoki hostingni ta'minlash).
- e) Striming xizmatlarini, shu jumladan jonli translyatsiyalarni taqdim etuvchi kompaniyalar.
- f) Raqamli fayllarni saqlash xizmatlarini taklif qiluvchi kompaniyalar, bulutli xizmat ko'rsatuvchi provayderlar.

5 Xususiyatlarga oid nazorat ro'yxatlari

Ushbu bob bolalar huquqlarini onlayn muhitda hurmat qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarga ega xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar uchun tavsiyalar berish orqali tarmoq uchun oldingi umumiy nazorat ro'yxatini to'ldiruvchi hisoblanadi. Quyidagi xususiyatlar uchun maxsus nazorat ro'yxatlari 1-jadvalda keltirilgan umumiy tamoyillar va yondashuvlarni to'ldirish yo'llarini belgilaydi, chunki ular turli xizmatlarga tegishli va shuning uchun 1-jadvaldagi bosqichlarga qo'shimcha ravishda ko'rib chiqilishi kerak.

Bu yerda ta'kidlangan xususiyatlar o'zaro bog'liq va bir nechta xususiyatga xos nazorat ro'yxatlari birgina kompaniya uchun tegishli bo'lishi mumkin.

Quyidagi xususiyatlarni tekshirish ro'yxatlari 1-jadvaldagi umumiy rahbariy ko'rsatmalar bilan bir xil asosiy yo'nalishlar bo'yicha tuzilgan va ularga havola qilingan. Har bir xususiyat nazorat ro'yxati asosiy ishtirokchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va natijada jadvallarda kichik o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

5.1 A xususiyati: Ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini taqdim etish

Internetga kirish bolalar huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun asos bo'lib, ulanish bolalar uchun butun dunyoni ochish imkonini beradi. Ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini taqdim etuvchi provayderlar bolalar va yoshlar uchun o'z takliflarida xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash uchun ulkan imkoniyatlarga egadirlar. Ushbu xizmat xususiyati, jumladan, uyali aloqa operatorlari, Internet-provayderlar, ma'lumotlarni saqlash tizimlari va xosting xizmatlariga xosdir.

Mobil operatorlar Internetga kirishni ta'minlaydi va mobil aloqa uchun maxsus ma'lumotlar xizmatlarini taklif qiladi. Ko'pgina operatorlar COP amaliyot kodlariga allaqachon ro'yxatdan o'tgan va o'z majburiyatlarini ta'minlash uchun bir qator vositalar va axborot resurslarini taklif qiladilar.

Aksariyat Internet-provayderlar o'zlarining xosting, keshlash va saqlash xizmatlari orqali Internetga kirish va undan chiqishni ta'minlovchi kanal va ma'lumotlar ombori sifatida ishlaydi. Natijada, ular bolalarni onlayn himoya qilishning asosiy mas'uliyatni o'z zimmlariga oldilar.

Jamoat joylarida Internetga ulanish

Munitsipalitetlar, chakana savdogarlar, transport kompaniyalari, mehmonxonalar tarmoqlari va boshqa korxonalar va tashkilotlarda Wi-Fi ulanish nuqtalari orqali Internetga kirishni ta'minlash tobora keng tarqalgan. Bunday kirish odatda bepul yoki minimal to'lov evaziga taqdim etiladi, ba'zan esa davlat xizmati sifatida yoki kompaniya tomonidan mijozlarni o'z binolariga jalb qilish yoki ko'proq odamlarni uning xizmatlaridan foydalanishga ko'ndirish uchun minimal rasmiylash bilan taqdim etiladi.

Wi-Fini targ'ib qilish ma'lum bir hududda Internet mavjudligini ta'minlashning samarali usuli hisoblanadi. Biroq, bunday kirish bolalar muntazam ravishda bo'lishi mumkin bo'lgan jamoat joylarida ta'minlanganda ehtiyot bo'lish kerak. Foydalanuvchilar Wi-Fi signallari orqali o'tkinchilar uchun ulanish imkoniyati mavjudligini hisobga olib, foydalanuvchilar ma'lumotlari buzilishi mumkinligini yodda tutishlari kerak. Shuning uchun, Wi-Fi provayderi har doim ham o'zi taqdim etgan Internetga ulanishni ta'minlay olmaydi yoki undan foydalanishni nazorat qila olmaydi, shu sababli, foydalanuvchilar maxfiy ma'lumotlarni jamoat joylaridagi Wi-Fi orqali bo'lishish uchun ehtiyot choralarini ko'rishlari lozim.

Jamoat joylarida Wi-Fi provayderlari bolalar va yoshlarni himoya qilish uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni qo'llashlari mumkin, masalan:

- CSAMga kirishni bloklash harakatlariga qo'shimcha ravishda, keng auditoriya uchun mos bo'lmagan kontentni o'z ichiga olgan veb-manzillarga kirishni bloklash.

- Bolalar bo'lgan muhitda mumkin bo'lmagan har qanday materialga kirish yoki ularni ko'rsatish uchun Wi-Fi xizmatlaridan foydalanishni taqiqlovchi foydalanish qoidalari va shartlariga oid bandlarni o'z ichiga olishi lozim. Shartlar shuningdek, bunday qoidalarni buzish oqibatlari to'g'risidagi mexanizmlarni o'z ichiga olishi kerak.
- Shaxsiy ma'lumotlarning manipulyatsiyasi yoki yo'qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun barcha choralarini ko'rish.
- Nomaqbul materialga qarshi siyosatni kuchaytirish uchun Wi-Fi tizimiga filtrlarni o'rnatish.
- Bolalar va yoshlarning Internet kontentiga kirishi bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ota-ona nazoratini taklif qilish uchun jarayonlar va dasturiy ta'minot bilan ta'minlash.

Ilg'or tajriba: Masalan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning ko'pchiligining telekommunikatsiya qoidalarida tarmoqqa kirish shaxsiy SIM-kartalar yoki boshqa identifikatsiya vositalari orqali amalga oshirilishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

2-jadvalda ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini taqdim etuvchi provayderlar uchun bolalarning onlayn himoyasi va bolalar ishtirokini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakatlar bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar keltirilgan.

2-jadval: A xususiyati uchun COP nazorat ro'yxati: Ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini taqdim etish

<p>Bola huquqlari bo'yicha tushunchalarni barcha tegishli korporativ siyosat va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish</p>	<p>Ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderlar AKT ning bolalar va yoshlar huquqlariga salbiy ta'sirini aniqlash, oldini olish va yengillatish hamda bolalar va yoshlar huquqlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini aniqlashi mumkin.</p> <p><i>1-jadvaldagi umumiy ranbariy ko'rsatmalarga qarang.</i></p>
<p>CSAM bilan ishlash uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish</p>	<p>Hukumat, huquqni muhofaza qilish organlari, fuqarolik jamiyati va ishonch telefoni tashkilotlari bilan hamkorlikda ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderlar quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali CSAMga qarshi kurashda muhim rol o'ynashi mumkin:</p> <p>Hukumat, huquqni muhofaza qilish organlari, fuqarolik jamiyati va ishonch telefoni tashkilotlari bilan CSAMni samarali boshqarish va tegishli organlarga xabar berish maqsadida hamkorlik qilish. Agar huquqni muhofaza qilish organlari va ishonch telefoni bilan o'zaro aloqa hali o'rnatilmagan bo'lsa, jarayonlarni birgalikda ishlab chiqish uchun ularning hamkorligi bilan shug'ullanish.</p> <p>Ulanish, ma'lumotlarni saqlash yoki xosting xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderlar huquqni muhofaza qilish organlari uchun ham AKT bo'yicha treninglar o'tkazishlari mumkin.</p> <p>Agar kompaniya ushbu masala bo'yicha huquqiy va huquqni muhofaza qilish nazorati kam rivojlangan bozorlarda ishlayotgan bo'lsa, u hisobot berishni xohlovchilarga Internet ishonch telefoni xalqaro assotsiatsiyasi (INHOPE)ga murojaat qilishi mumkinligini tushuntirish. INHOPE da hisobotlarni istalgan xalqaro ishonch telefonida topshirish mumkin.</p> <p>Foydalanuvchilarning aniqlangan CSAMga kirishini qiyinlashtirish uchun tegishli organlar (masalan, milliy huquqni muhofaza qilish organlari yoki ishonch telefoni, Cybertip Canada, Interpol, IWF) tomonidan yaratilgan xalqaro miqyosda tan olingan URL yoki veb-saytlarni bloklash ro'yxatini joylashtirishni ko'rib chiqish.</p> <p>Xabar berish, olib tashlash va hisobot berish jarayonlarini ishlab chiqish va suiiste'mollik haqidagi hisobotlarni ushbu jarayonlarga javob berish tartibi va olib tashlash muddatlari bo'yicha davlat xizmati shartnomasi bilan bog'lash.</p> <p>Masalan, UNICEF va GSMA Ogohlantirish va olib tashlash siyosatlari va amaliyotlari bo'yicha ko'rsatmalari.</p> <p>Undan foydalanish bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lgan hisobot mexanizmini o'rnatish, masalan, noqonuniy kontent va xabar qilinishi kerak bo'lgan xatti-harakatlar bo'yicha yo'nalish ko'rsatish va Internetda keyingi tarqalishning oldini olish uchun hisobotga qanday materiallar ilova qilinishi mumkin emasligini aniqlash.</p> <p>Dalillarni yig'ish kabi harakatlar orqali jinoyit tergov o'tkazilgan taqdirda huquqni muhofaza qilish organlariga ko'maklashish.</p> <p>CSAMni saqlash, bo'lish yoki tarqatish uchun xizmatlardan foydalanishni taqiqlash maqsadida xizmat shartlari va qoidalaridan foydalanish. Ushbu shartlarda CSAMning taqiqlanganligiga ishonch hosil qilish.</p> <p>Xizmat ko'rsatish shartlari va qoidalarida CSAM aniqlangan yoki xabar qilingan taqdirda kompaniya huquqni muhofaza qilish organlari tekshiruvlari bilan to'liq hamkorlik qilishiga ishonch hosil qilish.</p> <p>Hozirda milliy darajada CSAM uchun onlayn hisobot berishning ikkita yechimi mavjud: ishonch telefonlari va hisobot portallari. Barcha mavjud ishonch telefonlari va portallarining so'nggi to'liq ro'yxatini quyidagi manzilda topishingiz mumkin INHOPE.</p>

<p>CSAM bilan ishlash uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish (davomi)</p>	<p>Ishonch telefonlari: Agar milliy ishonch telefoni mavjud bo'lmasa, INHOPE va INHOPE jamg'armasi bilan ishlashni o'z ichiga olgan bir qator variantlar uchun uni o'rnatish imkoniyatlarini o'rganish (GSM assotsiatsiyasining INHOPE ishonch telefonlari uchun ko'rsatmalari). GSM assotsiatsiyasining INHOPE ko'rsatmasining interaktiv formati mavjud bo'lib, u mijozlarni qo'llab-quvvatlash xodimlarining huquqni muhofaza qilish organlari va INHOPEga shubhali mazmundagi hisobotlarni taqdim etishi uchun ichki jarayonlarni qanday ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.</p> <p>Hisobot portallari: IWF ishonch telefonlari bo'lmagan mamlakatlar va mamlakatlardagi Internet foydalanuvchilariga bolalarning jinsiy zo'rovonligida gumon qilingan tasvirlar va videolarni to'g'ridan-to'g'ri IWFga buyurtma orqali xabar qilish imkonini beruvchi maxsus onlayn portal sahifasi hisobot portalini yechim sifatida taklif qiladi.</p>
<p>Xavfsiz va yoshga mos raqamli muhitni yaratish</p>	<p>Ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderlar uchun, ularning xizmatlari kontent hosting turini o'z ichiga olsa (ko'pchilik bunday qilmaydi), u holda ogohlantirish va o'chirish jarayonlari ham o'z o'rnida bo'lishini ta'minlashi kerak.</p> <p>Ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini taqdim etuvchi provayderlar quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali barcha yoshdagi bolalar uchun xavfsiz va qiziqarli raqamli muhit yaratishga yordam beradi:</p> <p>Ma'lumotlarni saqlash/xosting xizmati provayderlari barcha veb-sahifalar va xizmatlarda hisobot berish funksiyasini taqdim etishni ko'rib chiqishlari hamda suiiste'mollik yoki boshqa shartlar va qoidalar buzilishi haqidagi hisobotlarni tezkor boshqarish uchun aniq jarayonlarni ishlab chiqishlari va hujjatlashtirishlari kerak.</p> <p>Ulanish provayderlari o'z brendining texnik nazoratini taklif qilishlari yoki taklif etilayotgan xizmatlarga mos keladigan va oxirgi foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirish uchun qulay bo'lgan maxsus provayderlar tomonidan yaratilgan vositalar mavjudligini ko'rsatishi va kompaniya orqali Internetga kirishni bloklash yoki filtrlash imkoniyatini taklif qilishlari kerak. Agar kompaniya katta yoshdagi foydalanuvchilari uchun qonuniy yoki yoshiga mos keladigan kontent yoki xizmatlarni (jumladan, o'z brendi yoki kompaniya tomonidan ilgari suriladigan uchinchi tomon xizmatlarini) taklif qilsa (masalan, ayrim o'yinlar, lotereyalar), yoshni tekshirishning tegishli mexanizmlarini taqdim etish.</p>
<p>Bolalar, ota-onalar va o'qituvchilarni bolalarning xavfsizligi va AKTdan mas'uliyatli foydalanish bo'yicha o'qitish</p>	<p>Ulanish, ma'lumotlarni saqlash va xosting xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderlar bolalar, ularning ota-onalari va ularga vasiylarni qo'llab-quvvatlash uchun qulay tilda yozilgan hamjamiyat rahbariy ko'rsatmalaridagi shartlar va qoidalardagi asosiy xabarlarini aks ettirishi kerak. Xizmatning o'zida, kontentni yuklash vaqtida, nomaqbul deb hisoblangan kontent turi kabi mavzular haqida eslatmalarni berib borish.</p> <p>Bolalar va yoshlarni internetdan xavfsiz foydalanish bo'yicha ma'lumotlar bilan ta'minlash. Quyidagi kabi asosiy xabarlarini targ'ib qilishning ijodiy usullarini ko'rib chiqish:</p> <p>“Hech qachon aloqa ma'lumotlarini, shu jumladan jismoniy joylashuvingiz va telefon raqamingizni shaxsan tanimaydigan hech kim bilan bo'lishmang.”</p> <p>“Hech qachon kattalar bilan maslahatlashmasdan turib, Internetda tanishgan odam bilan uchrashishga rozi bo'lmang. Har doim ishonchli do'stingizga qayerda ekanligingizni ayting.”</p> <p>“Qo'rqituvchi, odobsiz yoki haqoratimiz xabarlariga javob bermang. Ammo dalillarni saqlang - xabarni o'chirmang.”</p> <p>“Biror kimdan xafa yoki nimadandir noqulaylik his qilsangiz, bu haqida ishonchli do'stingiz yoki kattalarga ayting.”</p> <p>“Hech qachon parolingiz yoki foydalanuvchi nomingizni bermang! E'tiborli bo'ling, boshqa odamlar internetdagi shaxsiy ma'lumotlaringizni bo'lishishga ishonitirish uchun yolg'on ma'lumot berishi mumkin.”</p>

Bolalar, ota-onalar va o'qituvchilarni bolalarning xavfsizligi va AKTdan mas'uliyatli foydalanish bo'yicha o'qitish (davomi)	Xizmat ko'rsatuvchi provayderlar bolalarni internetdan xavfsiz foydalanish va tegishli masalalar bo'yicha o'rgatish va qo'llab-quvvatlash uchun yaxshi mavqega ega tashkilotlar bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Masalan, Child Helpline International va GSM assotsiatsiyasining "Bolalar ishonch telefonlari va mobil operatorlar uchun: bolalar huquqlarini himoya qilish uchun birgalikda ishlash" amaliy ko'rsatmasi
Raqamli texnologiyani fuqarolik faolligini oshirish usuli sifatida ilgari surish	1-jadvaldagi umumiy rahbariy ko'rsatmalarga qarang.

5.2 B xususiyati: Tanlangan raqamli kontentni taklif qilish

Internet barcha turdagi kontent va tadbirlarni taqdim etadi, ularning aksariyati bolalar va yoshlar uchun mo'ljallangan. Tahrirlash asosida tayyorlangan kontentni taklif qiluvchi xizmatlar bolalar va yoshlar uchun o'z takliflarida xavfsizlik va maxfiylikni oshirish uchun ulkan imkoniyatlarga egadirlar.

Ushbu xizmat xususiyati o'z kontentini yaratadigan va raqamli kontentga kirish imkonini beruvchi korxonalariga ham taalluqlidir. Bu, jumladan, yangiliklar va multimedia striming xizmatlari, milliy va davlat xizmatlarini ko'rsatish va o'yin tarmog'ini nazarda tutadi.

3-jadvalda bolalarning onlayn muhitdagi himoyasi va ishtirokini kuchaytirish bo'yicha siyosat va harakatlar asosidagi tahrirlash tomonidan tanlangan kontentni taklif qiluvchi xizmatlar provayderlari uchun ko'rsatmalar keltirilgan.

3-jadval: B xususiyati uchun COP nazorat ro'yxati: Tanlangan raqamli kontentni taklif qilish

Bola huquqlari bo'yicha tushunchalarni barcha tegishli korporativ siyosat va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish	Raqamli kontentni taqdim etuvchi xizmatlar AKTning bolalar va yoshlar huquqlariga salbiy ta'sirini aniqlash, oldini olish va yengillatishga yordam beradi hamda quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali bolalar va yoshlar huquqlarini rivojlantirishni ta'minlash imkoniyatlarini aniqlashi mumkin. Dasturlar, filmlar, o'yinlar, yangiliklar va hokazolarda ota-ona yoki boshqa kattalar tomonidan ruxsat berilgan holda ishtirok etayotgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning jismoniy va hissiy farovonligi va qadr-qimmatini inobatga olish maqsadida onlayn kontentni taqdim etuvchi korxonalar bolalar va yoshlarning xavfsizligini himoya qilish siyosatini ishlab chiqishi kerak.
CSAM bilan ishlash uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish	Hukumat, huquqni muhofaza qilish organlari, fuqarolik jamiyati va ishonch telefoni tashkilotlari bilan hamkorlikda raqamli kontentni taklif qiluvchi kompaniyalar quyidagi harakatlar orqali CSAMga qarshi kurashda muhim rol o'ynashi mumkin: CSAM holatlarida, masalan, foydalanuvchilar kontentni yuklash imkoniyatiga ega bo'lgan "izoh" yoki "ko'rib chiqish" funksiyalari orqali, xodimlar tegishli organlarga bunday materiallar haqida xabar berish uchun mas'ul bo'lgan ijroiya boshqaruv guruhiga murojaat qilishlari kerak. Bundan tashqari, ular: <ul style="list-style-type: none"> • milliy huquqni muhofaza qilish organlarini darhol ogohlantirish; • o'z rahbarini ogohlantirish va materiallar to'g'risida bolalarni himoya qilish siyosati mas'uliga xabar qilish; • voqea tafsilotlari bilan telefon yoki elektron pochta orqali ichki tergov xizmatiga murojaat qilish va maslahat so'rash; • materialni o'chirish, uni umumiy joyda saqlash yoki boshqa joyga yuborishdan oldin tegishli idoradan maslahat olish.

<p>CSAM bilan ishlash uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish (davomi)</p>	<p>Agar material aniqlansa, u to'g'ridan-to'g'ri Internet xavfsizligi bo'yicha ixtisoslashgan tashkilotga xabar qilinishi kerak, bunda jamoat a'zolari va axborot texnologiyalari mutaxassislari uchun potentsial noqonuniy onlayn kontentning muayyan shakllari haqida xabar berish uchun ishonch telefoni hisobot tizimidan foydalanadi.</p> <p>Masalan, uning asosida BBC "Bolalarni himoya qilish va himoya qilish siyosati" bolalar va yoshlar bilan onlayn muloqot qilish bo'yicha ko'rsatmalar tahririni e'lon qildi. U qo'shimcha nazorat ro'yxatlari hamda bolalar va yoshlar bilan onlayn ishlash uchun subpudratchilar va tashqi provayderlarga taalluqli bo'lgan axloq qoidalarini ham ishlab chiqqan. Birlashgan Qirollik uchun Ofcomning bolalarni himoya qilish siyosati onlayn kontent, mobil qurilmalar va o'yin pristavkalari uchun alohidadir.</p> <p>Agar CSAM e'lon qilingan yoki noqonuniy xatti-harakatlarga shubha qilingan bo'lsa, tez va mustahkam kuchayish strategiyasini amalga oshirish. Shu bois:</p> <ul style="list-style-type: none"> • foydalanuvchilarga onlayn hamjamiyatning har qanday qoidalarini buzish to'g'risida kontent ishlab chiqaruvchisini ogohlantirishning sodda va qulay kirish usulini taklif qilish; • qoidalarni buzadigan kontentni olib tashlash; • foydalanuvchilarga onlayn hamjamiyatning har qanday qoidalarini buzish to'g'risida kontent ishlab chiqaruvchisini ogohlantirishning sodda va qulay kirish usulini taklif qilish; • qoidalarni buzadigan kontentni olib tashlash; <p>Ijtimoiy tarmoq saytiga yoshga bog'liq bo'lgan tahririyat tomonidan tanlangan kontentni yuklashdan oldin, sayt qoidalari va shartlari bilan tanishib chiqish. Turli ijtimoiy tarmoq saytlarida eng kam yosh talablariga ogoh bo'lish.</p> <p>Har bir onlayn muhitning shartlari va qoidalarida bunday qoidalarning buzilishi haqida aniq xabar berish mexanizmlari ham bo'lishi kerak.</p>
<p>Xavfsiz va yoshga mos keladigan onlayn muhitni yaratish</p>	<p>Raqamli kontentni taklif etuvchi kompaniyalar quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali barcha yoshdagi bolalar va yoshlar uchun xavfsiz va qiziqarli raqamli muhit yaratishga yordam beradi:</p> <p>Qabul qilingan milliy yoki xalqaro standartlarga asoslangan va ekvivalent ommaviy axborot vositalarida qabul qilingan yondashuvlarga mos keladigan kontent tasnifi/yosh reytingi tizimlarini ishlab chiqish uchun sohadagi boshqalar bilan hamkorlik qilish.</p> <p>Iloji bo'lsa, kontent tasniflari turli media platformalarda o'zaro mos bo'lishi kerak, masalan, kinoteatr va smartfondagi film treylari mijozlarga bir xil tasniflarni ko'rsatishi mumkin.</p> <p>Bolalar va yoshlar uchun bolalarga mos va yoshiga xos mahsulotlarni ishlab chiqish.</p> <p>Ota-onalar va boshqalarga kontent bolalar va yoshlarning yoshiga mos keladimi yoki yo'qligini aniqlashda yordam berish uchun kontentni baholash tizimlariga mos keladigan barcha ommaviy axborot vositalarida ilovalar va xizmatlar yaratish.</p> <p>Bolalar va yoshlarning yoshga bog'liq kontent, saytlar, mahsulotlar yoki interaktiv xizmatlarga kirishining oldini olish uchun tegishli yoshni tekshirish usullarini qo'llash.</p> <p>Foydalanilayotgan kontentning tabiati va yoshga oid tasnifi haqida maslahat va eslatmalar berish.</p> <p>Audiovizual va multimedia xizmatlarini taklif qiluvchi kompaniya bolalar va yoshlar uchun zararli bo'lishi mumkin bo'lgan kontentga kirishga harakat qilayotgan foydalanuvchilarga shaxsiy identifikatsiya raqamini taqdim etishi mumkin.</p>

Xavfsiz va yoshga mos keladigan onlayn muhitni yaratish (davomi)	<p>Mahsulotlar va xizmatlar uchun narxlarning shaffofligini va foydalanuvchilar haqida to'plangan ma'lumotlarni ta'minlash. Ma'lumot to'plash qoidalari bolalar va yoshlarning shaxsiy daxlsizligiga oid tegishli qonunlarga, shu jumladan, tijorat korxonalarini boladan yoki unga tegishli shaxsiy ma'lumotlarni to'plashdan oldin ota-onaning roziligi talab qilinadimi yoki yo'qligini aniqlashni ta'minlash.</p>
	<p>Reklama yoki tijorat aloqasi aniq tanilishiga ishonch hosil qilish.</p> <p>Internetda mavjud bo'lgan kontentni nazorat qilish va uni, masalan, bolalar va yoshlar uchun onlayn reklama bo'yicha tegishli siyosatlarini o'rnatish orqali unga kirishi mumkin bo'lgan foydalanuvchilar guruhlariga moslashtirish. Agar kontent taklifi izohlash, onlayn forumlar, ijtimoiy tarmoqlar, o'yin platformalari, chat xonalari yoki xabarlar taxtasi kabi interaktiv elementni o'z ichiga olsa, xizmat ko'rsatish shartlari va foydalanuvchi rahbariy ko'rsatmalari doirasida "uy qoidalari"ni mijozlarga qulay tilda yetkazish.</p>
	<p>Onlayn xizmatni ishga tushirishdan oldin, qanday darajadagi qamrov kerakligini aniqlash. Bolalarni jalb qilishga qaratilgan xizmatlar faqat yosh auditoriya uchun mos bo'lgan kontentni taqdim etishi kerak. Agar ikkilansangiz, bolalarni himoya qilish uchun mas'ul bo'lgan milliy tashkilotlarga murojaat qilishingiz mumkin.</p>
	<p>Aniq va haqiqiy kontent yorlig'ini taqdim etish. Yodda tuting, foydalanuvchilar matnli sahifalarni chetlab o'tuvchi uchinchi tomon saytlariga havolalar orqali nomaqbul tarkibga kirishlari mumkin.</p>
Bolalar, ota-onalar va o'qituvchilarni bolalarning xavfsizligi va AKTdan mas'uliyatli foydalanish bo'yicha o'qitish	<p>Maxsus tanlangan raqamli kontentni taklif etuvchi kompaniyalar quyidagi harakatlarni amalga oshirib, bolalarning imkoniyatlarini kengaytiradigan ta'lim faoliyati bilan texnik chora-tadbirlarni to'ldirishlari mumkin:</p>
	<p>Mijozlarga kontent turi, yosh darajasi/cheklovlari, uyatli gaplar yoki zo'ravonlik va ota-ona nazorati kabi kontent haqida hamda noto'g'ri foydalanish va nomaqbul yoki noqonuniy kontent haqida qanday xabar berish va hisobotlar qanday ko'rib chiqilishi haqida aniq va to'liq ma'lumotlarni taqdim etish.</p> <p>Interaktiv dunyoda bu ma'lumot har bir dastur uchun kontent yorliqlari ko'rinishida taqdim etilishi kerak.</p>
	<p>Kattalarni, ayniqsa ota-onalarni, vasiylarni va o'qituvchilarni bolalar va yoshlarning onlayn kontentda foydalanishga jalb qilishlarini rag'batlantirish, ular bolalar va yoshlarga xarid qilishda kontent tanlashda yordam berishi va ko'rsatmalar berishi hamda xatti-harakatlar qoidalarni o'rnatishga yordam berishi mumkin.</p> <p>Bolalarga (ota-onalarga va vasiylarga) ekrandan foydalanish vaqtini boshqarishni o'rgatish va texnologiyadan foydalanishni qulay his qilishlari, jumladan, qachon to'xtab, boshqa biror ish bilan mashg'ul bo'lishlarini tushunishga yordam berish.</p>
	<p>Bolalar va yoshlarni Internetdan foydalanishda hushyor va mas'uliyatli bo'lishga undaydigan aniq va tushunarli tilda foydalanish qoidalarni taqdim etish.</p>
	<p>Qo'llanmalar va yordam markazlari kabi yoshga mos vositalarni yaratish. Zaruriyat bo'lganda, onlayn yoki shaxsiy profilaktika dasturlari va maslahat klinikalari bilan ishlashni yo'lga qo'yish. Misol uchun, agar bolalar va yoshlarning texnologiyaga haddan tashqari berilib ketish xavfi mavjud bo'lsa, bu ularning shaxsiy munosabatlarini rivojlantirish yoki sog'lom jismoniy faoliyat bilan shug'ullanishini qiyinlashtirsa, sayt ishonch telefoni yoki maslahat xizmati uchun aloqa havolasini taqdim etishi mumkin.</p> <p>Xavfsizlik ma'lumotlarini maslahatga havolalar kabi bolalar va yoshlarning katta qismiga yoqadigan, ko'zga ko'rinadigan, oson kirish mumkin bo'lgan va onlayn kontent ko'rinishida qo'yish.</p>
	<p>Muayyan brauzer orqali kirish mumkin bo'lgan kontentni boshqarish uchun "bloklash" kabi ota-ona nazorati vositasini taklif qilish.</p>
	<p>Internetda bolalar haqida oshkor qilingan ma'lumotlar ularni xavf ostiga qo'yimasligi uchun ota-onalar bilan hamkorlik qilish. Tahrirlangan kontentda bolalar qanday aniqlanishi diqqat bilan ko'rib chiqilishni talab qiladi va matnga qarab farqlanadi. Bolalarni dasturlarda, filmlarda, videolarda va hokazolarda namoyish qilishda, iloji bo'lsa, ularning roziligini olish va ishtirok etishdan bosh tortishni hurmat qilish.</p>

Raqamli texnologiyani fuqarolik faolligini oshirish usuli sifatida ilgari surish	To'g'irlangan raqamli kontentni taklif etuvchi kompaniyalar bolalar va yoshlarni quyidagi harakatlar bilan ishtirok etish huquqini ta'minlash orqali rag'batlantirishi va kengaytirishi mumkin:
	Yoshga mos keladigan hamda bolalar va yoshlarga o'zlari yashayotgan dunyoni anglashga yordam beradigan yuqori sifatli, qiyin, ta'lim beruvchi, zavqli va qiziqarli kontentni ishlab chiqish va/yoki taklif qilish. Bunday kontent jozibali va foydalanishga yaroqli, ishonchli va xavfsiz bo'lishidan tashqari, ko'ngil ochish va ta'lim olish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etish orqali bolalar va yoshlarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Bolalarga xilma-xillikni qabul qilish va ijobiy o'rnak bo'lish imkoniyatini beruvchi kontentni rag'batlantirish kerak.

5.3 S xususiyati: Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni joylashtirish va foydalanuvchilarni ulash

Bir paytlar onlayn dunyoda kattalar hukmronlik qilgan edi, ammo endi bolalar va yoshlar foydalanuvchi yaratgan kontentni yaratish va bo'lishishda bir nechta platformalarda asosiy ishtirokchilar ekanligi ayon bo'ldi. Ushbu xizmat xususiyati, jumladan, ijodiy amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy media xizmatlari, ilovalar va veb-saytlarga taalluqlidir.

Foydalanuvchilarni bir-biri bilan bog'laydigan xizmatlarni uch toifaga bo'lish mumkin:

- asosan xabar almashish ilovalari (Facebook Messenger, Groupme, Line, Tinder, Telegram, Viber, WhatsApp).
- asosan, foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni qidiradigan, qabul qiluvchi va foydalanuvchilarga kontentni bo'lishish hamda o'z tarmoqlari ichida va undan tashqarida ulanish imkonini beruvchi ijtimoiy tarmoq xizmatlari (Instagram, Facebook, SnapChat, TikTok).
- asosan jonli translyatsiya ilovalari (Periscope, BiGo Live, Facebook Live, Houseparty, YouTube Live, Twitch, GoLive).

Xizmat ko'rsatuvchi provayderlar platformalarda ro'yxatdan o'tish uchun minimal yoshni talab qiladi, ammo buni amalga oshirish qiyin, chunki yoshni tekshirish ma'lum qilingan yoshga bog'liq bo'ladi. Yangi foydalanuvchilarni bir-biri bilan bog'laydigan aksariyat xizmatlar, shuningdek, joylashuv ma'lumotlarini almashish funksiyalariga ham ruxsat beradi, bu esa ushbu xizmatlardan foydalanadigan bolalar va yoshlarni oflayn xavf oldida yanada zaif qilib qo'yadi.

Eng yirik ijtimoiy tarmoqlardan biri tomonidan qo'llaniladigan qoidalarga moslashtirilgan 4-jadvalda foydalanuvchilar yaratgan kontentni joylashtiradigan va yangi foydalanuvchilarni bog'laydigan xizmatlar provayderlari uchun bolalarni onlayn muhitda himoya qilish va bolalar ishtirokini kuchaytirish bo'yicha siyosat va harakatlar bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar berilgan.

4-jadval: S xususiyati uchun COP nazorat ro'yxati: Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni joylashtirish va foydalanuvchilarni ulash

<p>Bola huquqlari bo'yicha tushunchalarni barcha tegishli korporativ siyosat va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish</p>	<p>Foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentni joylashtiradigan va foydalanuvchilarni bog'lovchi xizmatlar AKT ning bolalar va yoshlar huquqlariga salbiy ta'sirini aniqlash, oldini olish va yengillatish hamda bolalar va yoshlar huquqlarini rivojlantirishni ta'minlash imkoniyatlarini aniqlashi mumkin.</p> <p><i>1-jadvaldagi umumiy rahbariy ko'rsatmalarga qarang.</i></p>
<p>CSAM bilan ishlash uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish</p>	<p>Hukumat, huquqni muhofaza qilish organlari, fuqarolik jamiyati va ishonch telefoni tashkilotlari bilan hamkorlikda foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentni joylashtirgan va foydalanuvchilarni bog'laydigan kompaniyalar quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali CSAMga qarshi kurashda muhim rol o'ynashi mumkin:</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda huquqni muhofaza qilish organlariga zudlik bilan yordam ko'rsatish va muntazam so'rovlar uchun barcha saytlarda tartiblarni belgilash.</p> <p>Noqonuniy kontent haqida xabar berilgan yoki aniqlangan taqdirda tadbirkorlik huquqini muhofaza qilish organlari bilan to'liq hamkorlik qilishini belgilash va jarima yoki hisob-kitob imtiyozlarini bekor qilish kabi jazolarga oid tafsilotlarni qayd etish.</p> <p>Mijozlarni qo'llab-quvvatlash, firibgarlikning oldini olish va xavfsizlik kabi ichki funksiyalar bilan ish olib borish va tadbirkorlik shubhali noqonuniy kontent haqida xabarlarini bevosita huquq-tartibot idoralari va ishonch telefonlariga yuborishi mumkinligiga ishonch hosil qilish. Ideal holda, bu birinchi navbatdagi xodimlarning kontentiga ta'sir qilmaslik yoki jabrlangan bola/bolalar va yoshlarni qayta ko'rmaydigan tarzda amalga oshirilishi kerak. Xodimlar haqoratli materiallarga duch kelishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni hal qilish uchun xodimlarning chidamliligi, xavfsizligi va farovonligini ta'minlash bo'yicha siyosat yoki dasturni amalga oshirish.</p> <p>Noqonuniy kontent va xatti-harakatlarni taqiqlash uchun xizmat shartlari va qoidalaridan foydalanish va quyidagilarni ta'kidlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • zararli tarkibga, shu jumladan bevosita yoki bilvosita zo'ravonlik niyatida bolalarga nisbatan grumingga yo'l qo'yilmaydi; • noqonuniy kontentga, shu jumladan CSAMni yuklash yoki keyinchalik tarqatishga yo'l qo'yilmaydi; • noqonuniy kontent yoki bolalarni himoya qilish siyosatining har qanday buzilishi haqida xabar berilgan yoki aniqlangan taqdirda kompaniya huquqni muhofaza qilish organlari tekshiruvlariga murojaat qiladi va ular bilan to'liq hamkorlik qiladi. <p>CSAM bilan ishlash bo'yicha monitoringdan boshlab, kontentni yakuniy uzatish va yo'q qilishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga olgan kompaniya amaliyotlarini hujjatlashtirish. Hujjatlarga material bilan ishlash uchun mas'ul bo'lgan barcha xodimlar ro'yxatini kiritish.</p> <p>Foydalanuvchi yaratgan kontentga egalik qilish, jumladan, foydalanuvchi so'roviga ko'ra foydalanuvchi yaratgan kontentni o'chirish imkoniyatiga oid siyosatlarni qabul qilish. Proвайder siyosatini buzadigan kontentni olib tashlash va uni joylashtirgan foydalanuvchini buzilishlar haqida ogohlantirish.</p>

<p>CSAM bilan ishlash uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish (davomi)</p>	<p>Foydalanuvchining maqbul foydalanish qoidalariga rioya qilmasligi qanday oqibatlarga olib kelishini ko'rsatish, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kontentni olib tashlash, ularning hisobini to'xtatib turish yoki yopish; • muayyan turdagi kontentni bo'lish yoki muayyan funksiyalardan foydalanishni bekor qilish; • ularning bolalar bilan aloqa qilishiga yo'l qo'ymaslik; • huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berish.
<p>Bolalar jinsiy zo'ravonlik materiallari bilan ishlash uchun standart jarayonlarni ishlab chiqish</p>	<p>CSAM yoki boshqa noqonuniy kontent uchun hisobot berish mexanizmlarini targ'ib qilish va mijozlar bunday kontentni aniqlasalar, qanday qilib hisobot berishni bilishlariga ishonch hosil qilish.</p> <p>Muammolarni har bir holatda baholash va tegishli choralarni ko'rish uchun tizimlarni yaratish va o'qitilgan xodimlarni ishga jalb qilish. Keng qamrovli va yaxshi resurslarga ega foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tezkor guruhlar yaratish. Ideal holda, bu guruhlar aniq javob berilishi va tegishli choralar ko'rilishini ta'minlash uchun turli xil hodisalarni boshqarishga o'rgatiladi. Foydalanuvchi shikoyat qilganda, hodisa turiga qarab, u tegishli xodimlarga yuborilishi lozim.</p> <p>Kompaniya, shuningdek, hisobotlar noto'g'ri topshirilgan holatlar uchun foydalanuvchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun maxsus guruhlarini tashkil qilishi mumkin.</p> <hr/> <p>CSAM ga kirishni darhol olib tashlash yoki bloklash jarayonlari, jumladan, noqonuniy kontent aniqlangandan so'ng uni olib tashlash uchun ogohlantirish va olib tashlash jarayonlariga ega bo'lish. Kompaniya bilan shartnomaviy munosabatlarga ega bo'lgan uchinchi shaxslar ham xuddi shunday ishonchli ogohlantirish va olib tashlash jarayonlariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish. Agar qonunan ruxsat etilgan bo'lsa, material tergov paytida jinoyatni isbotlash uchun saqlanishi mumkin.</p> <hr/> <p>Ma'lum bo'lgan noqonuniy kontentni aniqlay oladigan va uni shaxsiy guruhlariga yuklanishini oldini oladigan texnik tizimlarni ishlab chiqish yoki kompaniyaning xavfsizlik guruhi tomonidan darhol ko'rib chiqish uchun uni belgilash. CSAMni joylashtirish, tarqatish yoki yaratish uchun xizmatlardan noto'g'ri foydalanishdan himoya qilish maqsadida barcha tegishli choralarni ko'rish.</p> <p>Iloji bo'lsa, jinoiy xatti-harakatlar yoki modellarni aniqlash va tegishli choralarni ko'rish uchun profilga bog'langan obyektlar va metama'lumotlarni tahlil qilish uchun faol texnik choralarni yaratish.</p> <hr/> <p>Agar ilova yoki xizmat mijozlarga tasvirlarni kompaniyaga tegishli yoki boshqariladigan serverlarga yuklash va saqlash imkonini bersa, unday holda, CSAMni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan tasvirlarni aniqlash uchun jarayonlar va vositalarga ega bo'lish. Bunda skanerlash texnologiyasi yoki inson tekshiruvi kabi faol identifikatsiya usullarini ko'rib chiqish.</p>

Xavfsiz va yoshga mos keladigan onlayn muhitni yaratish	Foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentni taklif qiluvchi va foydalanuvchilarni bog'lovchi xizmat ko'rsatuvchi provayderlar quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali barcha yoshdagi bolalar uchun xavfsiz va qiziqarli raqamli muhit yaratishga yordam beradi:
	Xizmat ko'rsatish shartlari va foydalanuvchi rahbariy ko'rsatmalari doirasida mijozlarga qulay tilda muloqot qilish, "uy qoidalar" to'plami quyidagilardan iborat: <ul style="list-style-type: none"> • xizmatning tabiati va uning foydalanuvchilaridan kutilayotgan natija; • mazmuni, xatti-harakati va tili nuqtai nazaridan qabul qilinishi mumkin bo'lmagan narsa, shuningdek, noqonuniy foydalanishni taqiqlash; • har qanday buzilishning oqibatlari, masalan, huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berish va foydalanuvchining hisobini to'xtatib turish.
	Asosiy xavfsizlik va huquqiy xabarlar yoshga mos formatda (ya'ni hissiy sezgilar va belgilardan foydalangan holda) ro'yxatdan o'tganda ham, saytda turli harakatlar amalga oshirilganda o'z vaqtida taqdim etilishi kerak.
	Mijozlarga noto'g'ri foydalanish bilan bog'liq xavflar haqida mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga xabar berishni yengillashtirish, bunda keraksiz xabarlarini olish (spam, bezorilik) yoki nomaqbul kontentni ko'rish kabi turli muammolarni hal qilish uchun standart va qulay jarayonlarni yaratish.
	Yoshga mos kontent almashish va ko'rinish sozlamalarini taqdim etish. Masalan, bolalar va yoshlar uchun maxfiylik va ko'rinish sozlamalarini shartli ravishda kattalar sozlamalaridan ko'ra cheklab qo'yish.
	Minimal yosh talablarini qo'llash va bunday vositalarni ishlab chiqish uchun ma'lum xalqaro standartlardan foydalangan holda biometrik kabi yangi yoshni tekshirish tizimlarini tadqiq etish va ishlab chiqishni ta'minlash. Kirish huquqiga ega bo'lish uchun o'z yoshi haqida noto'g'ri ma'lumot bergan voyaga yetmagan foydalanuvchilarni aniqlash va ularni chiqarib tashlash choralarini ko'rish. Bunda qo'shimcha shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va ushbu ma'lumotlarni saqlashni cheklash hamda uni qayta ishlash zarurligini hisobga olish kerak. Agar hali o'rnatilmagan bo'lsa, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari, joylashuvi va shaxsiy ma'lumotlarini buzmasdan kontent yoki xizmatga kirish uchun yetarli yoshda ekanligini aniqlash uchun tegishli tizimga kirish jarayonlarini sozlash. Bolalar subyektlari ma'lumotlarining maxfiylikini ta'minlash bo'yicha tegishli choralar mavjud bo'lganda, yoshni tekshirishning milliy funksional tizimlaridan foydalanish. Foydalanuvchilarning yoshini soxtalashtirgan odamlar haqida xabar berishga undashi mumkin bo'lgan hisobot funksiyasi yoki yordam stoli/markazini tashkil etish.
	Yosh foydalanuvchilarni istalmagan muloqotdan himoya qilish hamda maxfiylik va ma'lumot to'plash bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar mavjudligini ta'minlash.
	Joylashtirilgan tasvir va videolarni ko'rib chiqish va nomaqbullarini aniqlanganda o'chirish choralarini ko'rish. Bunga yordam vositasida ma'lum tasvirlarni xesh skanerlash va tasvirni aniqlash dasturlari kabi vositalar mavjud. Bolalarga mo'ljallangan xizmatlarda tasvirlar va videolar bolalarning o'zlari yoki boshqalar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarini joylashtirmasligiga ishonch hosil qilish uchun oldindan tekshirilishi kerak.

